

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI**

**“DAVLAT-HUQUQIY FANLAR”
KAFEDRASI**

Abdunazarov Bobur Dilshodovich

**O‘ZBEKISTON EKOLOGIK HARAKATINING HUQUQIY MAQOMI VA UNING
PARLAMENT FAOLIYATIDAGI ISHTIROKINING
TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI**

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Ilmiy raxbar: yu.f.n., dotsent Kasparov E.R.

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....

I. BOB O‘zbekiston Ekologik harakatining huquqiy xolati va uning tarkibiy tuzilishi.

1.1. O‘zbekiston Ekologik harakatining huquqiy maqomi va faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.....

1.2. O‘zbekiston Ekologik harakatining maqsad va vazifalari.....

II. BOB O‘zbekiston Ekologik harakatining Parlamentdagi maqomi va uning O‘zbekistonda inson ekologik huquqlarini ta‘minlanishda tutgan o‘rni.

2.1. O‘zbekiston Ekologik harakati deputatlar guruhining Parlamentdagi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.....

2.2. O‘zbekiston Ekologik harakati deputatlar guruhining qonun loyihalari tayyorlanishidagi ishtirokining o‘ziga xos jihatlari.....

2.3. O‘zbekiston Ekologik harakatining inson ekologik huquqlari ta‘minlanishi va muhofaza qilinishidagi o‘rni.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab Vatanimiz tinchligi, gullab yashnashi va xalqimiz farovonligiga erishish yo‘lida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yangilanish va bunyodkorlik strategiyasi izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodi, mustaqil O‘zbekistonning davlat va jamiyat qurilishi tizimi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholining real daromadlari va farovonligi uzluksiz oshib bormoqda. Mohiyati va mazmuni jihatidan mutlaqo o‘ziga xos bo‘lgan ta‘lim va maorif, kadrlar tayyorlash, sog‘liqni saqlash va madaniyat tizimlari yaratildi. Hayotimizga Vatan taqdiri haqida qayg‘uradigan, mamlakatning buguni, kelajagi uchun mas‘uliyatni chuqur his qiladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan, zamonaviy demokratik jamiyat qurish, mamlakatni modernizatsiyalash yo‘lidagi keng miqyosli vazifalarni amalda bajarishga qodir bo‘lgan, mustaqil hamda zamonaviy fikrlovchi yangi kadrlar kirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» nomli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi maruzasida "... sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan taminlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo‘yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

SHuningdek, 2014 yil 16 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga) Qonuni¹ normalarining konstitutsiyamizda o‘z aksini topishi Ekologik harakat faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi katta demokratik islohot sifatida baholash mumkin.

Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni taminlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o‘rnini belgilashga qaratilgan **"Ekologik nazorat to‘g‘risida"gi Qonun** loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati etdi, deb o‘ylayman"² deb ta‘kidlagan edi.

Mamlakatimizning taraqqiyot va demokratiya yo‘lidan izchil borishi O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan boy tabiiy resurslarga tayanadi. Mustaqil taraqqiyotning ilk kunlaridanoq ulardan oqilona foydalanish va kelgusi avlod uchun sof atrof tabiiy muhitni asrab avaylash borasida yo‘nalishlar belgilandi. Bu – mamlakatimiz aholisining ma‘nan boy va sog‘lom hayotini ta‘minlashdagi asosiy shart va omillardan biridir.

SHu munosabat bilan O‘zbekiston ekologik harakatining tuzilganligi bugungi davrning dolzarb talabi hisoblanadi. Ekoharakat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ekologik yo‘naltirilgan yondoshuv O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida eng muhim omil bo‘lib hisoblanishiga ishongan, atrof-muhit va inson salomatligi haqidagi g‘oyalarni qo‘llab quvvatlovchi hamda ularni amalga oshirish istagida bo‘lgan mamlakatimiz fuqarolarini birlashtirishga yo‘naltirilgan.

Ekoharakat O‘zbekiston fuqarolarining hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlashga

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (32, 78, 93, 98, 103 ва 117-моддаларига) Қонун 2014 йил 16 апрель, ЎРҚ-366-сон. Ушбу Қонун «Халқ сўзи» газетасининг 2014 йил 17 апрелдаги 74 (6004)-сонда эълон қилинган.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2010 йил 12 ноябрда бўлиб ўтган Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги «Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси» маърузасидаги маърузаси, маъруза матни «Халқ сўзи» газетасида 13 ноябрда чоп этилган

qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga intiladi.

Ekoharakat «Sogʻlom muhit – inson salomatligi» gʻoyasini oʻzining asosiy shiori hisoblaydi³

Tarixan qisqa muddat ichida Ekoharakat mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida oʻziga munosib oʻrin topdi. Buning uchun Oʻzbekiston ekologik harakati Markaziy Kengashi Ijroiya qoʻmitasi, Ekoharakat faollari va uning joylardagi boʻlinmalari dasturiy ustuvor maqsad va vazifalarni ogʻishmay amalga oshirish uchun aniq reja asosida ish olib bordi.

Bugungi kunda Ekoharakat oʻz atrofiga yuqori malakali ekolog mutaxassislarni, sogʻlom muhit yaratish inson salomatligining asosiy mezonini deb bilgan tibbiyot xodimlarini, ekologik yoʻnalishda qalam tebratayotgan jurnalistlar va boshqa soha vakillarini birlashtirganki, bunday salohiyat bilan biz belgilangan dasturiy maqsad-vazifalarni toʻla-toʻkis bajarish imkoniga egamiz.

Bugungi kunda jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalarning ekologik funksiyalari, xususan Oʻzbekiston Ekologik harakatining huquqiy maqomi va uning vakolatlari shuningdek mazkur tuzilma faoliyatini takomillashtirish va shu orqali inson ekologik huquqlarini taʼminlash va ekologik barqarorlikni saqlab qolish masalalarida etarlicha ilmiy izlanishlar olib borilayotganligini taʼkidlash lozim. Jumladan B.Alixanov va SH.X.Fayzievlarning «Oʻzbekiston ekologik harakati: savollar va javoblar»⁴ risolasi va R.A.Ikramovning «Siyosiy partiyalar va ommaviy (ijtimoiy) harakatlar faoliyatida inson ekologik huquqlari masalalari»⁵ mavzusidagi monografiyalari Ekologik harakatning huquqiy maqomi va vakolatlarini oʻrganishda hamda uning faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim manbalardan biri boʻlib xisoblanadi.

Bundan tashqari huquqshunos-ekolog olimlardan Oʻzbekiston Ekologik harakatining huquqiy maqomi va faoliyatining huquqiy jihatlariga olimlardan U.Ayubov, D.Aripov, U.Bozorov, N.Skripnikov, I.Jalilov, Y.Joʻraev, M.Usmonov, J.Xolmoʻminov va boshqalar oʻzlarining ilmiy asarlari, darsliklari, oʻquv qoʻllanmalarida eʼtibor qaratib oʻtishgan.

SHunga qaramasdan mazkur mavzuni alohida oʻrganish va huquqiy tahlil qilishni lozim deb hisoblaymiz. YUqoridagilarni inobatga olib bitiruv malakaviy ishidan quyidagilar maqsad qilib quyiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Oʻzbekiston ekologik harakatining tashkil etilishi va uning huquqiy maqomini tizimli tahlil qilish; Ekologik harakatining vakolatlarini qiyosiy oʻrganish; Mazkur harakatning harakatining tarkibiy tuzilishi, deputatlar guruhining Parlamentdagi huquqiy maqomi va vakolatlari, shuningdek deputatlar guruhining qonun loyihalari tayyorlanishidagi ishtirokining oʻziga xos jihatlarini va Oʻzbekiston Ekologik harakatining inson ekologik huquqlari taʼminlanishi va muhofaza qilinishidagi oʻrnini atroflicha oʻrganish va va asosli takliflar berishdan iboratdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, mazkur tadqiqot ishida Oʻzbekiston Ekologik harakatining huquqiy maqomi uning vakolatlari ekologik barqarorlikni taʼminlashning muhim vositalaridan biri sifatida alohida oʻrganiladi va tushunchalarga taʼrif beriladi. Oʻzbekistonda inson ekologik huquqlarini taʼminlash va ekologik barqarorlikni taʼminlashda Ekoharakatning oʻrni va mazkur mavzu bilan bogʻliq muammolar va ularning huquqiy echimiga doir masalalar tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning natijalari va unda ilgari surilgan gʻoyalardan jamoat tashkilotlarining ekologik vakolatlarini yanada chuqurroq oʻrganishda, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirishda, tegishli meʼyoriy xujjatlarni ishlab chiqishda, xususan Oʻzbekiston Ekologik harakatining faoliyatini oʻrganish va huquqiy tartibga solish masalalarida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, beshta paragrafni oʻz ichiga olgan ikkita bobdan shuningdek xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

³ Ўзбекистон экологик ҳаракати: саволлар ва жавоблар // Масъул муҳаррирлар: Б.Алихонов, Ш.Файзиев. – Т., 2009. - 48

⁴ Ўзбекистон экологик ҳаракати: саволлар ва жавоблар // Масъул муҳаррирлар: Б.Алихонов, Ш.Файзиев. – Т., 2009. - 48

⁵ **Икромов Р.А.** Сийсий партиялар ва оммавий (ижтимоий) ҳаракатлар фаолиятида инсон экологик ҳуқуқлари масалалари Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети – Тошкент: “Turon-iqbol”, 2011. 416-б.

I. BOB O‘zbekiston Ekologik harakatining ning huquqiy xolati va uning tarkibiy tuzilishi.

§1. O‘zbekiston Ekologik harakatining huquqiy maqomi va vaoliyatining o‘ziga xos jihatlari.

Ekologiya muammolari o‘tkirlashib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-maishiy manfaatlariga zid oqibatlarini keltirib chiqaravergach, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish zaruriyatini anglab etgan insoniyat, mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. SHu o‘rinda bunday faoliyat bilan shug‘ullanadigan davlat va nodavlat organlari tashkil etila boshlandi. Davlat tuzilmalari zimmasiga maxsus ravishda davlat boshqaruvi va nazorati ishlarini amalga oshirish yuklandi. Eng diqqatga sazovori shundaki, davlat tuzilmalaridan holi ravishda fuqarolarning nodavlat birlashmalari ham davlat tuzilmalarining ekologik faoliyatidan orqada qolayotgani yo‘q.

Endilikda fuqarolarning turli-tuman ommaviy harakatlari va ekologik birlashmalari mazkur jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Hattoki, jamoatchilikning ekologik harakati fuqarolik jamiyatining oddiy instituti “maqomi”dan davlat oliy hokimiyat tuzilmalarida ishtirok etish, ya’ni siyosiy hokimiyatning ma’lum bir tarkibiy qismini tashkil qilish va davlatni boshqarishda ishtirok etish kabi alohida o‘ziga xos ekologik kuch bo‘lishgacha borib etdi. Ayniqsa, fuqarolar birlashmalarining siyosiy maqsadlarni ko‘zlab tuzilayotganligi, ular vakillik, qonun chiqaruvchi organlarga saylovlarda hamda qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etayotganligi hozirgi zamonda insoniyatning davlatchilik sohasida erishgan ulkan yutug‘idir. Ekologik siyosiy kuchning davlatchilik asoslarida ishtirok etishi O‘zbekistonda ham davlat hokimiyatining yangi, zamonaviy sifatini tashkil etayotganligi alohida diqqatga sazovor voqelik bo‘lib, bu fenomen huquqshunoslik fani oldiga uni tadqiq qilish, mohiyatini anglash va targ‘ibot qilish masalasida katta vazifalarni qo‘yadi⁶.

Tashkil topganiga endigina besh yildan oshgan O‘zbekiston ekologik harakati qisqa vaqt ichida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zining munosib o‘rnini topdi.

Jumladan, O‘zbekiston ekologik harakati o‘tgan davr mobaynida atrof-muhit muhofazasi va sog‘lom muhit yaratish orqali aholi salomatligini mustahkamlash borasida samarali faoliyat olib bordi. Bu o‘rinda mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining 2010 yil 12 noyabrdagi qo‘shma majlisida qilgan ma’ruzasidagi: “O‘zbekiston ekologik harakati yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi, yuksak deputatlik minbaridan turib atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini o‘rtaga qo‘yish va nazorat qilish, insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli hamda tajovuzkor o‘zgarishlaridan himoya qilish uchun ulkan imkoniyatlarni qo‘lga kiritdi”, degan fikrlari dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ekoharakat 2008 yil 2 avgustda mamlakatimiz ekolog olimlari, shu sohada ish olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va faol jamoatchilikning tashabbusi bilan tashkil topgan hamda 2008 yil 20 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Mazkur harakatning davlat tilidagi to‘liq rasmiy nomi – «O‘zbekiston ekologik harakati», rus tilida – «Ekologicheskoe dvizhenie Uzbekistana» deb yuritiladi, qisqa rasmiy nomi davlat tilida – «Ekohara-kat», rus tilida – «Ekodvijenie» hisoblanadi.

⁶ **Икрамов Р.А.** Сиёсий партиялар ва оммавий (ижтимоий) ҳаракатлар фаолиятида инсон экологик ҳуқуқлари масалалари Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети – Тошкент: “Турон-iqbol”, 2011. 15-б.

Ekoharakat – O‘zbekiston fuqarolarining bugungi va kelajak avlodining qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish, sog‘liqni saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta‘minlashga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish va ularga so‘zsiz rioya etilishiga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda bevosita faol ishtirok etishga hamda bu borada jamiyatning barcha sa‘y-harakatlarini safarbar etishga intiluvchi mamlakat fuqarolari va tashkilotlarni ixtiyoriylik asosida birlashtiruvchi ommaviy jamoat harakatidir. Ekoharakat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida amalga oshiradi.

Ekoharakatning boshqa jamoat birlashmalari, shu jumladan siyosiy partiyalardan asosiy farqi – Ekoharakat siyosiy maslagidan qat‘iy nazar atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ahvolni yaxshilash, odamlar salomatligi uchun kurashish, boshqacha aytganda, jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlariga birdek daxldor muammolarni hal etishda davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning sa‘y-harakatlarini safarbar etishga intiladi. Ekoharakatning siyosiy partiyalardan yana bir muhim farqi shundaki, Ekoharakat ro‘yxatga olingan a‘zolarga ega emas.

“Sog‘lom muhit – inson salomatligi” g‘oyasi Ekoharakatning asosiy shiori etib qabul qilingan. Ekoharakat faoliyatida fuqarolar va qonunlarda belgilangan tartibda boshqa shaxslar qatnashishi, shuningdek, ustav maqsad va vazifalari Ekoharakatga yaqin bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirok etishi mumkin. Fuqarolar va yuridik shaxslarning Ekoharakatda ishtirok etishi tartibi uning Markaziy Kengashi tomonidan belgilanadi. Ekoharakat a‘zolarga emas, balki ishtirokchilarga egadir. Ekoharakat o‘z ishtirokchilarini O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq ravishda hududiy prinsip asosida birlashtiradi. Ekoharakat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunlari, boshqa qonunlari va qonunosti hujjatlari hamda o‘zining Ustavi va Dasturiga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

Uning asosiy prinsiplari qonuniylik, o‘zini o‘zi boshqarish va oshkoralikga asoslangan holda ish yuritishdir.

Ekoharakat O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs hisoblanadi. Alohida mol-mulkka, o‘zining muhri, shtampi, blankalari, boshqa ramzlari va belgilariga ega. Ekoharakat mustaqil balans yuritadi, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochishi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Ekoharakat Markaziy Kengashining qarorlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek, zaruratga qarab ular ichida alohida tashkil etiladigan mintaqaviy, hududiy bo‘linmalar ishtirokchilarni ular faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish maqsadida birlashtiruvchi Ekoharakatning tashkiliy asosi hisoblanadi.

Ekoharakatning barcha hududiy bo‘linmalari Ekoharakatning Ustavi, yuqori turuvchi organlar qarorlari va dasturiy hujjatlar asosida faoliyat yuritadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo‘linmalarining murojaatiga asosan Ekoharakat Markaziy Kengashining qarori bilan ularga yuridik shaxs maqomi berilishi mumkin.

Ekoharakatning yuqori turuvchi rahbariy organlari qonuniylik va maqsadga muvofiqlik belgilariga ko‘ra hududiy bo‘linmalarining qarorlarini bekor qilishi yoki ijrosini to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Ekoharakatning hududiy bo‘linmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Ekoharakat Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi Raisining taqdimnomasiga binoan amalga oshiriladi. Uning Ustaviga muvofiq, boshqaruv organlari bo‘lib Konferensiya, Markaziy Kengash va Ijroiya qo‘mita hisoblanadi. Konferensiya Ekoharakatning oliy rahbar organi hisoblanadi va besh yilda kamida bir marotaba o‘tkaziladi. Navbatdan tashqari Konferensiya Ekoharakatning Markaziy Kengashi tomonidan Ekoharakat ishtirokchilari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismini tashkil etuvchi bo‘linmalarining taklifi asosida chaqiriladi. Konferensiya delegatlari Markaziy Kengash aniqlaydigan vakillik normasi bo‘yicha hududiy bo‘linmalarda hisobda turuvchi Ekoharakat ishtirokchilarining konferensiyalarida saylanadilar. Konferensiyaning mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

Ekoharakatning Ustav va Dasturini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; Ekoharakat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash; Ekoharakatdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining o'n besh deputatini saylash; Ekoharakatdan saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatini chaqirib olish; besh yil muddatga Markaziy Kengash va Markaziy-nazorat taftish komissiyasi a'zolarini saylash va muddatidan oldin lavozimidan ozod etish; Markaziy Kengash va Markaziy nazorat-taftish komissiyasi hisobotlarini tasdiqlash; Markaziy nazorat-taftish komissiyasi to'g'risida-gi Nizomni tasdiqlash; bosma organlarning bosh muharrirlarini tayinlash va lavozimidan ozod etish, tahririyat va tahrir hay'ati to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash; Ekoharakatni tugatish va qayta tashkil etish to'g'risida qarorlar qabul qilish. Konferensiya qonunda belgilangan tartibda boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Ekoharakatning Ustavi va Dasturi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar Konferensiyaning qarori bilan qabul qilinadi. Ekoharakatning Ustavi va Dasturini qabul qilish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Konferensiya qarori ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va Konferensiyada ishtirok etayotgan delegatlarning uchdan ikki qismi yoqlab ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Markaziy Kengash Ekoharakatning konferensiyalari oralig'idagi davrda uning rahbar organi hisoblanadi.

Markaziy Kengash Ekoharakat manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan ish yuritadi, Ekoharakatning ustav va dasturiy vazifalari bajarilishini tashkil etadi. Markaziy Kengash Ekoharakat boshqa rahbar organlarining (Markaziy nazorat-taftish komissiyasi bundan mustasno) hisobotlarini eshitadi, muhokama qiladi va tegishli qarorlar qabul qiladi. Markaziy Kengash a'zolari Ekoharakatning Konferensiyasi tomonidan besh yil muddatga saylanadilar. Markaziy Kengash a'zolarining soni va tarkibi Konferensiya tomonidan belgilanadi Markaziy Kengash Plenumi ushbu organ faoliyatining asosiy shakli bo'lib, yiliga kamida ikki marta chaqiriladi. Markaziy Kengash Plenumi, agar uning ishida Plenum a'zolarining uchdan ikki qismidan ko'prog'i ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Markaziy Kengashning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Konferensiyani chaqirish to'g'risida qaror qabul qilish; Ijroiya qo'mita a'zolarini saylash; Ekoharakatning hududiy bo'linmalarini tuzish; Ekoharakat organlari va tashkilotlarining tuzilishi, soni va shtat jadvalini, shuningdek, xodimlarning mansab yo'riqnomalarini tasdiqlash.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning Ekoharakatda ishtirok etish tartibini belgilash. Markaziy Kengash ushbu ko'rsatilgan vakolatlarning ayrimlarini Ijroiya qo'mitasiga berishga haqli. Ijroiya qo'mita Ekoharakatning doimiy asosda faoliyat yurituvchi rahbar organi bo'lib, uning majlislari zaruratga qarab, lekin oyiga kamida bir marta o'tkaziladi. Ijroiya qo'mita, unga Konferensiya va Markaziy Kengash tomonidan berilgan vakolatlar doirasida, Ustav vazifalari va dasturiy hujjatlarning amaliy ijrosi bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi.

Ijroiya qo'mita vakolatlariga quyidagilar kiradi:

rais va uning o'rinbosarlarini saylash; tarkibiga Markaziy Kengash a'zolarini kiritish, shuningdek Ijroiya qo'mitaning muayyan a'zolarini tarkibdan chiqarish hisobidan, ushbu masalalarni keyinchalik Markaziy Kengash Plenumining yaqin oradagi majlisida tasdiqlash orqali Ijroiya qo'mita-ning tarkibiga o'zgartishlar kiritish; Konferensiya va Markaziy Kengashning chaqirilishi va majlislari o'tkazilishini tashkil etish; Konferensiya va Markaziy Kengash qarorlarining ijrosini ta'minlash; Ekoharakat ishtirokchilarining markazlashgan hisobini, buxgalterlik va statistik hisobotlarni yuritish; amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda Ekoharakat ishtirokchilari, hududiy bo'linmalar boshliqlari va boshqa faollarni o'qitish hamda malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish; nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish doirasida qabul qilingan maxsus dasturlar va rejalarining ijro etilishini ta'minlash; yillik byudjet loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Markaziy Kengashga taqdim etish; ustav vazifalarini amalga oshirish uchun korxona, muassasa, tashkilotlarni ta'sis etish, ularning rahbarlarini tayinlash va faoliyatini nazorat qilish.

Ijroiya qo'mita Konferensiya va Markaziy Kengashga hisobdordir. Ijroiya qo'mita o'z vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha Ijroiya qo'mita raisi yoki tegishli yo'nalish bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan imzolanadigan qaror va farmoyishlar qabul qiladi.

Ekoharakat Ijroiya qo'mitasi Raisi:

Ijroiya qo'mita majlislarida raislik qiladi; qarorlar, farmoyishlar va buyruqlarni imzolaydi; faoliyatga doir moliyaviy hujjatlarni imzolaydi; Ijroiya qo'mita apparati xodimlari, hududiy tashkilotlar kengashlarining rahbarlari bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi; markaziy davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar, shuningdek jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladi; Konferensiya, Markaziy Kengash yoki Ijroiya qo'mitasining vakolatlari doirasiga kirmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ekoharakatning Markaziy nazorat-taftish komissiyasi besh yil muddatga Ekoharakatning Konferensiyasida saylanadi. Markaziy nazorat taftish komissiyasi Ekoharakatning markaziy nazorat organi bo'lib, Ekoharakatning rahbar va ijroiya organlari, quyi bo'linmalari faoliyati ustidan ushbu Ustav va rahbar organlari qarorlarining bajarilishini nazorat qiladi, shuningdek ularning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi.

Markaziy nazorat-taftish komissiyasi a'zolarining soni Konferensiya tomonidan belgilanadi. Markaziy nazorat-taftish komissiyasining birinchi majlisida Ekoharakatning navbatdagi Konferensiyasi muddatiga Rais va uning o'rinbosarlari saylanadi.

Markaziy nazorat-taftish komissiyasining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Ekoharakat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikka rioya etilishi, rahbar organlari va bo'linmalar tomonidan Ekoharakatning Dasturi va Ustavi, konferensiya qarorlari bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish; Ekoharakat va uning tuzilmalari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va tekshirish, Ekoharakatning moliya, tadbirkorlik va boshqa sohalaridagi faoliyatida amaldagi qonunchilikni buzish holatlarining oldini olish, Ekoharakatning moliya-xo'jalik faoliyatini yillik tekshiruvini amalga oshirish. Moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilayotganda barcha mansabdor shaxslar va shtatdagi xodimlar Markaziy nazorat-taftish komissiyasining talabiga binoan zarur hujjatlarni taqdim etish va tushuntirishlar berishga majburdir. Markaziy nazorat-taftish komissiyasi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Ekoharakatning Konferensiyasiga taqdimnoma va takliflar kiritishga haqli.

Markaziy nazorat-taftish komissiyasi faqat Ekoharakatning Konferensiyasiga hisobdordir. Markaziy nazorat-taftish komissiyasining a'zolari Ekoharakatning barcha bo'g'inlaridagi rahbar organlari majlislarida maslahat ovozi bilan qatnashish huquqiga ega. Markaziy nazorat-taftish komissiyasi Ustav va Konferensiyaning qarorlaridan kelib chiqib, boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ekoharakat O'zbekiston Respublikasining qonunlari doirasida boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlariga kirishishi mumkin. Ekoharakat boshqa davlatlarning jamoat birlashmalari va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatishi mumkin.

Ekoharakat qonunda belgilangan tartibda Ustav va Dasturida ko'rsatilgan ustuvor maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi moliyaviy manbalardan foydalanishi mumkin:

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan xayriya yordamlari, shuningdek, ekologik hasharlar va boshqa ekologik aksiyalarni o'tkazishdan tushadigan mablag'lar; qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar; O'zbekiston ekologik harakatining talabnomasi asosida subsidiyalar, grantlar, ijtimoiy buyurtma tarzida Parlament komissiyasining qarorlariga muvofiq ajratiladigan Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat Fondining mablag'lari; qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa tushum va daromadlar.

Ekoharakat yuridik shaxs hisoblanadi va qonunda belgilangan tartibda hamda Ustavida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun inshootlar, turar joylar, uskunalar, transport vositalari, inventar, pul mablag'lari, shu jumladan chet el valyutasidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa Ekoharakatda cheklanmagan mol-mulkka ega bo'lishi va foydalanishi mumkin. Hududiy bo'linmalarga birlashtirilgan mulk Ekoharakatning mulki hisoblanadi. Ekoharakatning hududiy bo'linmalari o'zlariga birlashtirilgan mol-mulkni operativ boshqaradilar.

SHuni alohida qayd etish lozimki, Ekoharakat faqat Ustavida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish uchungina qonunda belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi.

Ekoharakat har yili barchaning e'tibori uchun o'z byudjetini e'lon qiladi va o'z faoliyatini mablag' bilan ta'minlash manbalari to'g'risida vakolatli organlarga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.

Mavjud ekologik muammolarga jamoatchilikning e'tiborini qaratish, ularni izchil hal etishning eng maqbul yo'llarini muhokama qilishni tashkil etish, atrof tabiiy muhit muhofazasi holati, uni muhofaza qilish ishlari haqida fuqarolarni ob'ektiv va tezkor axborot bilan ta'minlash maqsadida Ekoharakat faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi hamda o'zining ommaviy axborot vositalari va Internet resurslarini tashkil etadi.

§2. O'zbekiston Ekologik harakatining maqsad va vazifalari.

Fuqarolik jamiyati va uning muhim institutlaridan bo'lmish jamoat birlashmalarining hozirgi paytda amalga oshirayotgan "vakolatlari" ichida ekologik masalalarni hal etishdagi roli alohida ahamiyatga ega. Keyingi davrlarda jamoatchilik ekologik harakati haqli ravishda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini tavsiflaydigan real voqelik bo'lib rivojlanmoqda. SHu

o'rinda ekologiya muammolari bilan maxsus shug'ullanayotgan jamoat birlashmalarining soni 100 dan ortib ketganligini aytib o'tish zarur.

Prezidentimiz I.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida har bir jamiyat a'zosining ekologiya muammolariga nisbatan faol munosabatda bo'lish masalasiga alohida to'xtalib o'tgan. CHunonchi, Prezidentimiz fikricha "... biz tanlagan davlat va jamiyat qurilishi modelini tadbqiq etish jarayonida fuqarolarning mamlakat boshqaruvidagi rolini oshirib borishni asosiy o'ringa qo'yadigan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha ishlarni yanada faollashtirish masalasini bugun hayotning o'zi kun tartibiga tobora qatitq qilib qo'ymoqda⁷.

O'zbekistonda inson ekologik huquqlarini ta'minlashda dastavval davlat tuzilmalarining etakchilik rolini ta'kidlab o'tish lozim. Zero, aksariyat hollarda insonning ekologik huquqlari davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, qolaversa, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida ta'minlanadi. SHunday sharoitda fuqarolik jamiyati tuzilmalarining ham inson ekologik huquqlarini ta'minlashdagi rolini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Biroq, fuqarolik tuzilmalarining huquqni ta'minlash vakolatlarini tom ma'nodagi huquqni ta'minlash bilan tenglashtirmaslik kerak. Bunda uning o'ziga xos xususiyatlari va belgilari mavjud.

Fuqarolik jamiyati institutlarining ichida insonning ekologik huquqlarini ta'minlash masalalari bilan birmuncha to'laqonli shug'ullanadigani bu jamoat birlashmalaridir⁸.

Ekoharakat o'zining harakat Dasturi va Ustaviga muvofiq o'z oldiga quyidagi asosiy vazifalarni qo'yadi:

O'zbekiston fuqarolarining bugungi va kelajak avlodining qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish, sog'liqni saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan huquqlariga rioya etilishiga erishish; aholining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologiyani yaxshilash: suv va havo havzalarini, ularni zararli chiqindilar va saqlash joylaridan muhofaza qilish, biologik rangbaranglikni asrash va tiklash bo'yicha ishlardagi faolligini oshirish; qonunlarda belgilangan tartibga rioya etgan holda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi umummajburiy tusga ega normativ-huquqiy hujjatlarining amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek ushbu sohada zarur qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi yuzasidan tashabbuslar bilan chiqish; davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish, shu jumladan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda aholi salomatligini saqlash bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun ajratilgan mablag'lardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini oshirish; aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ta'lim muassasalarida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha maxsus fanlarni joriy etish; ekologik xavfsizlik, sog'lom hayot muhiti va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

Ekoharakat o'zining maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajaradi va funksiyalarni amalga oshiradi:

- jamoatchilikning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish ishidagi faolligini oshirish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha qonunchilikni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga ko'maklashish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va shu maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'lardan oqilona foydalanish bo'yicha qonunlar va boshqa davlat qarorlarining so'zsiz ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

⁷ Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир. Халқ сўзи. 2010 йил 28 январ.

⁸ Икрамов Р.А. Сиёсий партиялар ва оммавий (ижтимоий) ҳаракатлар фаолиятида инсон экологик ҳуқуқлари масалалари Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети – Тошкент: "Turon-iqbol", 2011. 211-б.

- aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
- Ekoharakatning jamoaviy ishtirokchilari bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- qonunda belgilangan tartibda davlat hokimiyati vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda qatnashish.

Ekologik harakatning asosiy e'tibori atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish mamlakatimiz har bir fuqarosining umumiy vazifasi bo'lib qolishiga yo'naltiriladi. Ushbu maqsadlarda Ekoharakat o'z sa'y-harakatlarini:

- o'z ishtirokchilari va tashkilotlarida, hamkorlarida mintaqaviy, milliy va mahalliy ekologik hamda aholi salomatligi muhofazasi yaxlit dasturlarini ishlab chiqish va bajarishdagi amaliy ishtiroklarini faollashtirishga qaratilgan sa'y harakatlarni shakllantirishga;
- Ekoharakat ishtirokchilari va hamkorlarining davlat organlari va jamoat tuzilmalar tomonidan mavjud ekologik muammolarini hal etish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish sohasidagi qonun hujjatlarini ijro etish borasidagi mas'u-liyatini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirishga;
- jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan ekologik muammolarni hal etishdagi hamkorliklari samaradorligini oshirish va rivojlantirishga yo'naltiradi.

Xalqaro va chet el ekologik tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash orqali Ekoharakat atrofmuhit va aholi salomatligi muhofazasi bo'yicha samarali xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishga intiladi.

Ekoharakatning asosiy vazifalaridan biri davlat idoralari, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari, barcha korxona va muassasalarning atrofmuhit muhofazasi, suv va havo havzalari, er va biologik resurslar holatini yaxshilash hamda ularni chiqindilarning zararli ta'siridan himoya qilish, aholi salomatligini muhofaza qilish sohasidagi amaldagi qonunlar va boshqa qarorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlarini qo'llab quvvatlash va keng jamoatchilik ko'magini shakllantirishdan iboratdir.

Xususan Ekoharakat:

- fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'l-gan huquqini himoya qilishga hamda tabiatdan foydala-nish sohasida iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilish-ga qaratilgan ekologik xavfsizlikni kompleks tarzda ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga;
- mamlakatda ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga boshqacha tarzda zarar etkazganlik uchun korxona va tashkilotlarning, mansabdor shaxslar va alohida fuqarolarning javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga;
- ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga zararli bo'lgan boshqa ta'sirlar oqibatlarini bartaraf etish, shu jumladan transchegaraviy ahamiyatga ega bo'lgan holatlarda ham, ular tomonidan atrof-muhitga va inson salomatligiga etkazilgan zararni qoplashni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga intiladi.

Ekoharakat davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari tomonidan tabiatni muhofaza qilish va aholi salomatligi muhofazasi sohasidagi qonunchilikni xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq holda rivojlantirish maqsadida yangi qonun hujjatlarining qabul qilinishi, amaldagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritilishi bo'yicha tashabbuslar bilan chiqadi.

Ekoharakat atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan hamda shu maqsadlarga ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari va boshqa davlat qarorlari bajarilishi uchun markazda va joylardagi davlat hokimiyati organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar mansabdor shaxslarining mas'uliyatini oshirishga har tomonlama ko'maklashadi. Bundan tashqari, Ekoharakat joylarda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, bu maqsadlar uchun davlat byudjeti, to'g'ridan-to'g'ri xorij

sarmoyalari hamda homiylik mablag'laridan o'z vaqtida, to'liq va samarali foydalanish ustidan jamoatchilikning muntazam ekologik monitoringini ta'minlashga o'z e'tiborini qaratadi.

Ekoharakat hozirgi kunda globalashib borayotgan ekologik muammolarni faqat xo'jalik faoliyatida resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va sohada qonunchilikni takomillashtirish bilangina hal etish mumkin emasligini e'tirof etadi.

Aholining ekologik bilimlarini oshirishda Ekoharakat quyidagi yo'nalishlardagi davlat dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etishni nazarda tutadi:

- uzluksiz ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish uchun ta'lim dasturini shakllantirish va amalga oshirish;

- ekologiya sohasidagi mutaxassislarining malakasini, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari, iqtisodiyot va boshqaruv, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari va xodimlarining ekologik ma'lumotini oshirishning samarali tizimini yaratish;

- ekologik ta'lim va tarbiya jarayoniga masofadan turib o'qitish va ta'lim berish resurslarini ham o'z ichiga olgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish;

- umumta'lim maktablari va boshqa o'quv muassasalari, oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yoshlarning ekologik ta'limi va tarbiyasi borasidagi sa'y harakatlarni birlashtirish.

Ekoharakat atrof-muhit muhofazasi chegara bilmasligini nazarda tutib, izchil ravishda xalqaro va chet el ekologik jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

SHu maqsadda, Ekoharakat quyidagilarga faol jamoatchilik ko'magi va qo'llab-quvvatlashini ta'minlaydi:

- xalqaro ekologik forumlarda O'zbekiston vakillarining samarali ishtiroki;
- ekologik muammolar bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro anjumanlar, seminarlar va uchrashuvlar o'tkazish amaliyotini rivojlantirish.

Ekoharakat quyidagi xalqaro loyihalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi va ularda faol ishtirok etishni nazarda tutadi:

- shu va shu kabi chuqur ekologik muammolarni hal etishda hamda inson taraqqiyotida xalqaro sa'y harakatlarni birlashtirish;

- mintaqada ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda ekologik yo'nalish ustuvorligini ta'minlash;

- ekologik toza texnologiyalar, bio va nanotexnologiyalarni tatbiq etish, ishlab chiqarishda ekologik novatsiyalarni qo'llashga qaratilgan ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;

- xalqaro moliyaviy institutlarni atrof-muhit muhofazasi sohasidagi, ekologik vaziyat, ekologik tibbiy ta'lim va tarbiyani yaxshilash, sog'liqni saqlash sohasidagi ustuvor dastur va loyihalarni investitsiyalash va kreditlashga jalb qilish.

Ekoharakat ushbu maqsadlar yo'lida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantiradi.

SHu maqsadda Ekoharakat:

- davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik holatni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini saqlash masalalari bo'yicha sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish;

- umumta'lim maktablari va boshqa o'quv muassasalari vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, oila va shaxsning ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish borasidagi sa'y harakatlarini birlashtirishga ko'maklashish;

- O'zbekistonda yuksak ekologik madaniyat darajasiga, har bir fuqaro tomonidan mamlakatning noyob tabiati xalqimiz tarixiy merosining ajralmas qismi ekanligi va kelajak avlodlar uchun uni asrab avaylash zaruratining anglanishiga erishishda barcha manfaatdor

davlat organlari va jamoat birlashmalari, fuqarolarning sa'y harakatlarini izchil uyg'unlashtirishga intiladi.

Ekoharakat o'zining dasturiy maqsadlarini amalga oshirib, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish zarur, deb hisoblaydi va atrof-muhit muhofazasi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishga intiladi.

SHu maqsadda Ekoharakat:

- muayyan ekologik muammolarni hal qilish uchun ekologiya sohasida jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish orqali jamoatchilikning faolligini rivojlantirishga ko'maklashish va bu borada tashabbuskor bo'lishni;

- yoshlarning ekologik tashabbuslarini qo'llab quvvatlashni, yoshlarni tabiatni muhofaza qilish ishiga faol jalb etishni;

- mamlakat er va suv resurlaridan tejamli va samarali foydalanishdagi muammolarini hal etish maqsadida ekologik harakatga fermerlar va agrar sohaning boshqa xodimlarini keng miqyosda jalb etishni;

- odamlarda o'z sog'lig'ini saqlashga, tabiat qonunlaridan kelib chiqqan holda hayot faoliyatlarini tashkil etish munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan salomatlik, sog'lom turmush tarzi falsafasini targ'ib qilishda xalq ta'limi va sog'liqni saqlash organlari, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'zaro hamkorligini mustahkamlashga ko'maklashishni mo'ljallamoqda.

Ekoharakat quyidagi huquqlarga ega:

- ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfa-atlarini ifoda etish va himoya qilish;
- ijtimoiy hayotning turli masalalari bo'yicha tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga takliflar kiritish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlar qabul qilishida ishtirok etish;

- belgilangan tartibda o'zining ramzlarini ta'sis etish;

- o'zining faoliyati haqida axborot tarqatish;

- noshirlik va ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amal-dagi qonun hujjatlariga muvofiq ko'rgazmalar, sport hamda boshqa tadbirlarni o'tkazish;

- ustav faoliyatini amalga oshirish uchun tadbir-korlik tuzilmalarini tashkil etish;

Ekoharakat quyidagi majburiyatlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, normativ-huquqiy hujjatlari va o'z Ustaviga rioya qilish;

- belgilangan tartibda o'z faoliyati haqida ro'yxatga oluvchi, statistika va soliq organlariga hisobotlar taqdim etish.

Ekoharakat ishtirokchilari o'zlari bevosita yoki vakillari orqali quyidagi huquqlarga ega:

- Ekoharakatning barcha tadbirlarida qatnashish;

- Ekoharakatning rahbar organlari saylovlarida hal qiluvchi ovoz bilan qatnashish;

- Ekoharakat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlar, shuningdek Ekoharakatning ustav faoliyatini moliya-lashtirish mablag'larining shakllantirilishi va xara-jat qilinishi haqida axborot olish.

Ekoharakat ishtirokchilari quyidagi majburiyatlarga ega:

- Ekoharakat faoliyatida faol qatnashish, shu jumladan, uning maqsad va vazifalarini, ularga erishish yo'llarini targ'ib qilish;

- Ekoharakat Ustavi talablarini va rahbariy organlari qarorlarini bajarish.

Birinchidan, o'z ishtirokchilari va tashkilotlarida, hamkorlarida mintaqaviy, milliy va mahalliy ekologik hamda aholi salomatligi muhofazasi yaxlit dasturlarini ishlab chiqish va bajarishdagi amaliy ishtiroklarini faollashtirishga qaratilgan sa'y harakatlarni shakllantirish; Ekoharakat ishtirokchilari va hamkorlarining davlat organlari va jamoat tuzilmalari tomonidan mavjud ekologik muammolarini hal etish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish sohasidagi qonun hujjatlari ijrosi borasidagi mas'uliyatini kuchaytirishga

qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirish; - jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan ekologik muammolarni hal etishdagi hamkorliklari samaradorligini oshirish va rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ekoharakat xalqaro va chet el ekologik tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash orqali atrof-muhit va aholi salomatligi muhofazasi bo'yicha samarali xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishga intiladi.

Ikkinchidan, atrof tabiiy muhit muhofazasi masalalarida qabul qilingan qonunlar va davlat miqyosidagi boshqa qarorlar ijrosini ta'minlash hamda bu sohadagi qonunchilikni rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish bo'yicha tizimli ishlarni yuritish Ekoharakatning asosiy vazifalaridan biri davlat idoralari, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari, barcha korxona va muassasalarning atrof-muhit muhofazasi, suv va havo havzalari, er va biologik resurslar holatini yaxshilash hamda ularni chiqindilarning zararli ta'siridan himoya qilish, aholi salomatligini muhofaza qilish sohasidagi amaldagi qonunlar va boshqa qarorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha ishlarini qo'llab quvvatlash va keng jamoatchilik ko'magini shakllantirishdan iborat bo'ladi.

SHu bilan birga Ekoharakat davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari tomonidan ekologik va tabiatni muhofaza qilish borasidagi masalalarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, ekologik va aholi salomatligi muhofazasi sohasidagi qonunchilikni xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq holda rivojlantirish maqsadida yangi qonun hujjatlarining qabul qilinishi, amaldagi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritilishi bo'yicha tashabbuslar bilan chiqadi.

Xususan Ekoharakat: fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqini himoyalashga hamda tabiatdan foydalanish sohasida iqtisodiy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan ekologik xavfsizlikni kompleks tarzda ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga; mamlakatda ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga boshqacha tarzda zarar etkazganlik uchun korxona va tashkilotlarning, mansabdor shaxslar va alohida fuqarolarning javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga; ekologik huquqbuzarliklar va tabiatga zararli bo'lgan boshqa ta'sirlar oqibatlarini bartaraf etish, shu jumladan transchegaraviy ahamiyatga ega bo'lgan holatlarda ham, ular tomonidan atrof-muhitga va inson salomatligiga etkazilgan zararni qoplashni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga intiladi.

Ekoharakat quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan yangi qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish, amaldagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishni qo'llab quvvatlash borasida jamoatchilik tashabbuskorligini rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va energetikaning barcha sohalarida ekologik toza va xavfsiz, suv, resurs va energiyani tejovchi texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etishni tashkil etishda iqtisodiy, moliyaviy, soliq va boshqa vositalar hamda rag'batlantirish usullari qo'llanilishini yanada takomillashtirish;

energetika resurslaridan tejamli foydalanish va bosqichma-bosqich qayta tiklanuvchi energiya turlariga o'tish; yangi samarali uslublar hamda innovatsion qishloq xo'jaligi texnologiyalarni qo'llash hisobiga erlarning hosildorligi va meliorativ holatini yaxshilash; tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini buzish ishlab chiqaruvchi uchun naf keltirmaydigan tarzdagi soliqqa tortish va tabiatni muhofaza qilish faoliyati uchun imtiyozlar berishning samarali tizimini yaratish.

Uchinchidan, atrof tabiiy muhit muhofazasi va shu maqsadlarga ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish borasida qabul qilingan hujjatlarni ijro etishda markaz va joylarda davlat organlari, jamoatchilik va boshqa tuzilmalar mas'uliyatini oshirish Ekoharakat atrof-muhit muhofazasi va tabiatdan hamda shu maqsadlarga ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari va davlat miqyosidagi boshqa qarorlar bajarilishi uchun markazda va joylardagi davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, korxona, muassasa va tashkilotlar mansabdor shaxslarining mas'uliyatini oshirishga har tomonlama ko'maklashadi: muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va ob'ektlar, ekologik sertifikatlash va ekspertiza to'g'risidagi, chiqindilar bilan munosabatda bo'lish hamda ishlab chiqarishda ekologik talablar to'g'risidagi;

suv va suvdan foydalanish to'g'risida, er to'g'risida, er osti boyliklari to'g'risida, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida, o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi; mamlakat aholisini sifatli ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlash ishlarini jadallashtirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholini suv resurslaridan tejamkorlik bilan oqilona foydalanish borasidagi javobgarligini kuchaytirish to'g'risidagi; O'zbekistan Respublikasining atrof tabiiy muhit monitoringi dasturlari to'g'risidagi; Orolbo'yi va mamlakatning ekologik noqulay boshqa hududlarida ekologik holatni barqarorlashtirish, qayta tiklash va sog'lomlashtirish to'g'risidagi; ekologik xatarli hududlarda istiqomat qiluvchi aholining genofondini muhofaza qilish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi; aholi salomatligini muhofaza qilish to'g'risidagi hujjatlar shular jumlasidandir. Ekoharakat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qabul qilingan maqsadli mintaqaviy va hududiy dasturlarning, ekologik qonunchilikning joylarda bajarilishida ko'maklashishga intiladi: tabiatni muhofaza qilish ob'ektlari va inshootlari infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy ekotizimga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish; aholi punktlari va shaharlarning ekologik holatini yaxshilash va obodonlashtirish, zamonaviy urbanizatsiya jarayonining salbiy ekologik oqibatlarini bartaraf etish; qishloqlarda madaniy-maishiy turmush tarzini, ayniqsa uning sanitar-gigienik va ekologik omillarini yaxshilash; intensiv shamol erroziyasi va cho'l hududlarida joylashgan aholi punktlari va shaharlar atrofida yashil himoya tizimlarini barpo qilish; sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va genofondni muhofaza qilish. Bundan tashqari, Ekoharakat joylarda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, bu maqsadlar uchun davlat byudjeti, to'g'ridan-to'g'ri xorij sarmoyalari hamda homiylar mablag'laridan o'z vaqtida, to'liq va samarali foydalanish ustidan jamoatchilikning muntazam ekologik monitoringini ta'minlashga o'z e'tiborini qaratadi.

To'rtinchidan, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish Ekoharakat hozirgi kunda globallashtirib borayotgan ekologik muammolarni faqat xo'jalik faoliyatida resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va sohada qonunchilikni takomillashtirish bilangina hal etish mumkin emasligini e'tirof etadi. Aholining ekologik madaniyatini oshirish, har bir insonda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, mamlakatning noyob tabiatini kelgusi avlod uchun asrab avaylash hissini shakllantirish bugungi kunda ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitga salbiy texnogen hamda antropogen ta'sirlarning oldini olishning asosiy omili bo'lib bormoqda.

Ekoharakat ekologik fikrni shakllantirish, ekologik ta'lim va tarbiyaning samarali tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan hamda mustaqillik yillarida ilgari surilgan «Hamma narsa inson uchun va uning kelajagi uchun» tamoyilini amalga oshirish ishlarini tashkil etishda keng jamoatchilikning faol ishtirokini muhim deb hisoblaydi. Aholining ekologik bilimlarini oshirishda Ekoharakat quyidagi yo'nalishlardagi davlat dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etishni nazarda tutadi: uzluksiz ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish uchun ta'lim dasturini shakllantirish va amalga oshirish; ekologiya sohasidagi mutaxassislarning malakasini, ishlab chikarishning turli tarmoqlari, iqtisodiyot va boshqaruv, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari va xodimlarining ekologik ma'lumotini oshirishning samarali tizimini yaratish; ekologik ta'lim va tarbiya jarayoniga masofadan turib o'qitish va ta'lim berish resurslarini ham o'z ichiga olgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish; umumta'lim maktablari va boshqa o'quv muassasalari, oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yoshlarning ekologik ta'limi va tarbiyasi borasidagi sa'y harakatlarni birlashtirish. Aholining ekologik madaniyatini oshirish vazifasini hal etishda Ekoharakat xalqimizning doimo tabiat va inson uyg'unligiga erishishni ta'minlashga intilish, kelgusi avlod uchun uni asrab avaylash, suvdan tejamli foydalanishdek asriy an'analaridan iborat ma'naviy merosiga murojaat qilishni muhim deb hisoblaydi. Ekoharakat ekologik dunyoqarash va oqilona yondoshishni, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni jamiyat hayotining barcha jabhalarida ommalashtirishni o'zining muhim dasturiy vazifasi deb biladi va ushbu vazifani fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda hal etib boradi. Mavjud

ekologik muammolarga jamoatchilikning e'tiborini qaratish, ularni izchil hal etishning eng maqbul yo'llarini muhokama qilishni tashkil etish, atrof tabiiy muhit muhofazasi holati, uni muhofaza qilish ishlari haqida fuqarolarni ob'ektiv va tezkor axborot bilan ta'minlash maqsadida Ekoharakat faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi hamda o'zining ommaviy axborot vositalari va Internet resurslarini tashkil etadi. Ekoharakat atrof tabiiy muhit muhofazasi sohasida resurs va energiyani tejovchi, ekologik toza texnologiyalar borasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirishda keng jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashini ta'minlagan holda bugungi kunda fan va ta'lim sohasiga sarflanayotgan mablag'lar mamlakatimiz kelajagi egalariga xizmat qiladigan, ekologik madaniyati yuksak, intellektual jamiyat uchun mustahkam poydevor bo'lishini e'tirof etadi.

Beshinchidan, atrof-muhit muhofazasi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish Ekoharakat atrof-muhit muhofazasi chegara bilmasligini nazarda tutib, izchil ravishda xalqaro va chet el ekologik jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni rivojlantiradi va mustahkamlaydi. O'zbekiston xalqaro huquqning eng muhim ekologik hujjatlariga – BMTning cho'llanishga qarshi kurash, bioxilma xillikni asrash, iqlim o'zgarishi, transchegaraviy suvlardan foydalanish bo'yicha va boshqa konvensiyalariga qo'shilganligini nazarda tutib, Ekoharakat atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish borasidagi samarali xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi. SHu maqsadda, Ekoharakat quyidagilarga faol jamoatchilik ko'magi va qo'llab quvvatlashini ta'minlaydi: xalqaro ekologik forumlarda O'zbekiston vakillarining samarali ishtiroki; ekologik muammolar bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro anjumanlar, seminarlar va uchrashuvlar o'tkazish amaliyotini rivojlantirish. Markaziy Osiyoning ekologik xavfsizligini ta'minlash nafaqat shu hududda yashovchi xalqlarning hayoti va taqdiriga bevosita aloqador, balki global ahamiyatga ega ekanligi hamda Orol dengizining qurishi, iqlim o'zgarishi, erlarning degradatsiyasi, suv resurslarining tanqisligi va ifloslanishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, ifloslanishlarning transchegaraviy ko'chishi kabi muammolarni hal qilish bir davlat manfaatlari chegarasidan chiqishi va ularni birgalikda hal etish zaruratini hisobga olib, Ekoharakat quyidagi xalqaro loyihalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi va ularda faol ishtirok etishni nazarda tutadi: shu va shu kabi chuqur ekologik muammolarni hal etishda hamda inson taraqqiyotida xalqaro sa'y harakatlarni birlashtirish; mintaqada ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda ekologik yo'nalish ustuvorligini ta'minlash; ekologik toza texnologiyalar, bio va nanotexnologiyalarni tatbiq etish, ishlab chiqarishda ekologik novatsiyalarni qo'llashga qaratilgan ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash; xalqaro moliyaviy institutlarni atrof-muhit muhofazasi sohasidagi, ekologik vaziyat, ekologik tibbiy ta'lim va tarbiyani yaxshilash, sog'liqni saqlash sohasidagi ustuvor dastur va loyihalarni investitsiyalash va kreditlashga jalb qilish. Oltinchidan, atrof-muhit muhofazasi davlat, jamiyat va har bir fuqaroning vazifasi bo'lishiga erishish Ekoharakat ushbu maqsadlar yo'lida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolari, Qonunchilik palatasining deputatlari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantiradi. SHu maqsadda Ekoharakat: davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik holatni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini saqlash masalalari bo'yicha sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish; umumta'lim maktablari va boshqa o'quv muassasalari vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, oila va shaxsning ekologik ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish borasidagi sa'y harakatlarini birlashtirishga ko'maklashish; O'zbekistonda yuksak ekologik madaniyat darajasiga, har bir fuqaro tomonidan mamlakatning noyob tabiati xalqimiz tarixiy merosining ajralmas qismi ekanligi va kelajak avlodlar uchun uni asrab avaylash zaruratinining anglanishiga erishishda barcha manfaatdor davlat organlari va jamoat birlashmalari, fuqarolarning sa'y harakatlarini izchil uyg'unlashtirishga intiladi.

Oltinchidan, atrof-muhit muhofazasi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish Ekoharakat o'zining dasturiy maqsadlarini amalga oshirib, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish zarur, deb hisoblaydi va atrof-muhit

muhofazasi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari sa'y harakatlarini muvofiqlashtirishga intiladi. SHu maqsadda Ekoharakat: muayyan ekologik muammolarni hal qilish uchun ekologiya sohasida jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish orqali jamoatchilikning faolligini rivojlantirishga ko'maklashish va bu borada tashabbuskor bo'lishni; yoshlarning ekologik tashabbuslarini qo'llab quvvatlashni, yoshlarni tabiatni muhofaza qilish ishiga faol jalb etishni; mamlakat er va suv resurlaridan tejamli va samarali foydalanishdagi muammolarini hal etish maqsadida ekologik harakatga fermerlar va agrar sohaning boshqa xodimlarini keng miqyosda jalb etishni; odamlarda o'z sog'lig'ini saqlashga, tabiat qonunlaridan kelib chiqqan holda hayot faoliyatlarini tashkil etish munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan salomatlik, sog'lom turmush tarzi falsafasini targ'ib qilishda xalq ta'limi va sog'liqni saqlash organlari, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'zaro hamkorligini mustahkamlashga ko'maklashishni mo'ljallamoqda. Jamoatchilik e'tiborini ekologik sog'lomlashtirish va atrof-muhit muhofazasi muammolarini izchil sur'atda hal etish zaruratiga qaratgan holda, Ekoharakat mamlakatimizning barcha fuqarolarini Ona Vatanimizning bebaho tabiiy boyliklarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylashdek oliy vazifani bajarishda faol ishtirok etishga chaqiradi.

II. BOB O'zbekiston Ekologik harakatining Parlamentdagi maqomi va uning O'zbekistonda inson ekologik huquqlarini ta'minlanishda tutgan o'rni.

§1. O‘zbekiston Ekologik harakati deputatlar guruhining Parlamentdagi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.

Inson ekologik huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ta‘minlash va himoya qilishda siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar va boshqa jamoat birlashmalarining huquq ijodkorligi jarayonlarida ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Zero, bunday birlashmalarining nafaqat amaldagi qonunlarda ifodalangan huquqlarni ro‘yobga chiqarishi va himoya qilishi, balki ularning yaratilishi jarayonlarida ham ishtirok etishi bir-biri bilan bog‘liq va to‘ldirib turuvchi bir butun hodisa deb qaralishi lozim.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar va boshqa jamoat birlashmalarining inson ekologik huquqlarini ifoda etish, ro‘yobga chiqarish va himoya qilishga taalluqli qonun hujjatlarini yaratish jarayonlarida ishtirok etishini tor ma‘noda tushunmaslik, ya‘ni uni faqatgina inson ekologik huquqlari bilan bog‘lamaslik kerak. Muxtasar qilib aytganda, hayotda tom ma‘noda, ya‘ni sof holatda inson ekologik huquqlariga taalluqli huquq ijodkorligi mavjud emas. Bundan tashqari huquq ijodkorligi asosan inson ekologik huquqlarining ob‘ekti bo‘lgan atrof tabiiy muhit, uni muhofaza qilish va uning boyliklaridan samarali foydalanish masalalariga taalluqli bo‘ladi. Inson ekologik huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish negizida shunday huquqlar talablariga javob beradigan atrof-muhitning tegishli sifati va miqdori yotadi. Partiyalar va ommaviy harakatlarning inson huquqlariga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni yaratishda ishtirok etishini aynan shunday ma‘noda tushunish lozim⁹.

Siyosiy partiyalar va ommaviy (ijtimoiy) harakatlarning normativ-huquqiy hujjatlarni yaratishdagi ishtirokini biz shartli ravishda bir-biridan farq qiladigan ikki xil jarayonda amalga oshiriladi deb hisoblaymiz. Birinchi holatda ular sof jamoat birlashmasi sifatida (parlamentdagi partiya fraksiyasi emas) bunday jarayonlarda ishtirok etadilar. Bu holatga ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining bir shakli sifatida qaralib, huquq ijodkorligi deb ataladi. Ikkinchi holatda bu birlashmalar parlamentdagi deputatlar fraksiyalari va Ekoharakat deputatlar guruhi sifatida bevosita qonun ijodkorligining sub‘ekti sifatida faoliyat yuritadilar. Bu jarayon huquq ijodkorligidan farq qilib, qonun ijodkorligi deb ataladi. Siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlarning normativ-huquqiy hujjatlar yaratishda ishtirok etishini ikki xil shaklda amalga oshiradi deb hisoblashning quyidagicha nazariy va huquqiy asoslari mavjud.

Yuridik adabiyotlarda huquq ijodkorligi “qonun ijodkorligi”ga qaraganda o‘zgacha tushuncha kasb etishi va undan keng tushuncha ekanligiga alohida e‘tibor qaratiladi. “Huquq ijodkorligi, - deb yozadi X.T.Odilqoriev va SH.U.YAkubovlar, - huquq yaratishning nisbatan kengroq jarayon bo‘lgan tarkibiy qismi hisoblanadi”¹⁰. “Qonunchilik (qonunni yaratish) jarayoni - davlat oliy vakillik organining Konstitutsiyada belgilangan yangi qonunlar yaratishga, amaldagi qonunlarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig‘indisi bo‘lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo‘lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o‘z ichiga oladi”¹¹. ...qonunchilik jarayoni asosan parlamentning qonun yaratish faoliyati tartibi bo‘lib qolaveradi¹².

Qonun chiqarish jarayoni huquq ijodkorligidagi asosiy shakllardan biri sanaladi¹³. Boshqa bir ilmiy manbada qonun ijodkorligi huquq ijodkorligi beshta turining alohida bir turidir deb ta‘kidlanadi¹⁴.

⁹ **Икромов Р.А.** Сиёсий партиялар ва оммавий (ижтимоий) ҳаракатлар фаолиятида инсон экологик ҳуқуқлари масалалари Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети – Тошкент: “Turon-iqbol”, 2011. 416-б.

¹⁰ Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У. Миллий ҳуқуқий тизим ва миллий қадриятлар. 252 б.

¹¹ Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. 250 б.

¹² Ўша жойда. 251 б.

¹³ Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У. Миллий ҳуқуқий тизим ва миллий қадриятлар. 252 б.

¹⁴ Ҳуқуқ ижодкорлигининг бешта турига: қонун ижодкорлиги, қонун ости ҳуқуқ ижодкорлиги, бевосита ҳуқуқ ижодкорлиги, маҳаллий ўз-ўзини бошқариш органлари локал норма ижодкорлиги, шартномавий норма ижодкорлиги. Қаранг: Общая теория государства и права. Академический курс в 3 томах. Т. 2. 404 б.

Ta'kidlash kerakki, ayrim ilmiy manbalarda "huquq ijodkorligi" va "qonun ijodkorligi"ning farqiga borilmaydi. CHunonchi, taniqli olim Z.I.Islamovning "Davlat va huquq nazariyasi" kitobida: "**Huquq ijodkorligi jarayonida** quyidagi funksiyalar: qonunlarning yangilanishi, ya'ni yangi normativ-huquqiy hujjatlarni chop etish; eskirgan yuridik hujjatlarni barham toptirish, ularni bekor qilish; huquqdagi bo'shliqlarni to'ldirish amalga oshiriladi"¹⁵ deb hisoblaydi. "Huquq ijodkorligi davlat faoliyatining shunday turiki, uning natijasida xalq irodasi **qonun maqomiga ko'tariladi**, huquq normasida, huquqning muayyan manbaida o'z ifodasini topadi"¹⁶.

2008 yil 25 dekabrda "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgar-tish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunga muvo-fiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchi-lik palatasining o'n besh nafar deputati mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishidan kelib chiqqan holda Ekoharakatdan saylanishi belgilandi. Qonundagi ushbu yangilik Qonunchilik palatasida Ekoharakat vakilligini ta'minlash orqali O'zbekis-tonning hozirgi va kelajak avlodlarining qulay at-rof-muhit, sog'liqni saqlash, atrof-muhitning tabiiy-ligini muhofaza qilish, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, aholining ekologik xavfsizligini ta'-minlash borasidagi huquqlarini ro'yobga chiqarish va ularga so'zsiz rioya qilish uchun keng imkoniyatlar yara-tish maqsadini ko'zlaydi. Ayni paytda, Ekoharakatga bunday huquqni berish-da atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ahvolni yaxshilash, odamlar salomatligi uchun kurashish, bosh-qacha aytganda, siyosiy maslagidan qat'iy nazar, jamiyat-ning barcha qatlamlari manfaatlariga birdek daxldor muammolarni hal etish masalalarining mamlakatimiz va hududlarimiz uchun naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutilgan. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga say-lov to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Ekoharakatdan Qonunchilik palatasiga deputatlar ushbu harakatning respublika Konferensiyasida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Ekologik harakatdan Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovini o'tkazish muddatlari va tartibini belgilash Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga yuklatilgan. Ekologik harakatdan saylan-gan deputatlarni ro'yxatga olishni ham Markaziy saylov komissiyasi amalga oshiradi. Bunda Ekologik harakatdan Qonunchilik palatasiga deputatlar saylo-viga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ochiq hamda oshkora amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunga ko'ra Ekoharakatdan Qonunchilik palatasi deputatlari etib saylanish uchun saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashagan bo'lish lozim. Quyidagilar deputatlikka nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar: • sodir etgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlangan-ligi olib tashlanmagan fuqarolar; • saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar;

• O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarining xodimlari; • diniy tashkilotlar va birlashmalarining profes-sional xizmatchilari; • sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar. Ekoharakat oliy organining (Konferensiya) vakili Ekoharakatdan Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar ro'yxatini Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi. Ro'yxatga quyidagilar ilova qilinadi: • Ekoharakat Konferensiyasining mazkur harakat-dan Qonunchilik palatasiga deputatlar saylash to'g'risidagi qarori; • Ekoharakat Konferensiyasi majlisi bayonnomasi-dan ko'chirma, unda Ekoharakatdan Qonunchilik palatasi deputati etib saylangan har bir shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, kasbi, lavozimi (mashg'ulotining turi), ish va yashash joyi ko'rsatiladi; • saylangan deputatning deputat etib ro'yxatga olingan taqdirda bajarib turgan ishidan (xizmatidan) bo'shsh to'g'risidagi arizasi.

¹⁵ Исламов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 590 б.

¹⁶ Шу асар. 585 б.

Markaziy saylov komissiyasi Ekoharakat Konferen-siyasining hujjatlarni taqdim etgan vakiliga ular-ning qabul qilib olingan sanasi va vaqti ko'rsatilgan ma'lumotnoma beradi. Markaziy saylov komissiyasi taqdim etilgan huj-jatlarni etti kunlik muddat ichida tekshirib chiqadi va ularning qonun talablariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi. Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar va qonun talablaridan chetga chiqish hollari to'g'risida Ekoharakat Konferensiyasi vaki-liga belgilangan tartibda ma'lum qiladi. Ekoharakatdan saylangan shaxslar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan paytdan e'tibo-ran Qonunchilik palatasi deputati maqomiga ega bo'ladi Ekoharakatdan Qonunchilik palatasi tarkibiga saylan-gan deputatlar deputatlar guruhlarini tuzishga haqli. Ekoharakatdan saylangan deputatlar va o'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda blok tuzadigan bir nechta fraksiya-lar parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etishi mumkin.

§2. O'zbekiston Ekologik harakati deputatlar guruhining qonun loyihalari tayyorlanishidagi ishtirokining o'ziga xos jihatlari.

Ekoharakat deputatlar guruhi Ekoharakat bilan birgalikda parlament nazoratini amalga oshirishda masalalarni muhokama qilishning "parlament eshituvi" va "jamoatchilik eshituvi" kabi yangicha shakllaridan foydalanmoqda. Bunday muhokamalarda nafaqat qonunlar, balki davlat dasturlari va ularni bajarish bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi va qarorlar qabul qilinadi. SHu o'rinda Ekoharakat deputatlik guruhi tomonidan 2010-2011 yillarda 2 ta parlament eshituvi va 10 dan ortiq jamoatchilik eshituvi o'tkazilganligini aytib o'tish lozim. Bundan tashqari 2010 yilning o'zida Ekoharakat deputatlik guruhi tomonidan ekologik qonunchilikni takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va joylardagi alohida ekologik muammolarga

turli dasturlarning ijro etilishiga bag'ishlangan 38910 ishtirokchi qatnashgan 184 ta turli uchrashuvlar tashkil etilgan. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi fraksiyasi va qo'mitalari tomonidan tashkil etilgan 543 ta turli konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlarida ishtirok etganlar¹⁷.

Qonun ijodkorligi faoliyatini amalga oshirishda Ekoharakat deputatlar guruhi tomonidan ilgari qabul qilingan (amaldagi) qonunlarni taftish qilish asosida ularni zamonaviy talab va o'zgarishlarga moslashtirish ishlariga alohida e'tibor berish ham guruhning yangicha ish uslublaridan biri deb hisoblash kerak. Uning "taftish qilish" faoliyatida 30 ga yaqin ekologik qonunlar qayta ko'rib chiqilgan. Natijada ularni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilib, ular shu qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar sifatida qabul qilindi. SHular jumlasiga O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi, "CHiqindilar to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Er osti boyliklari to'g'risida"gi qonunlarni, Er kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va boshqalarni kiritish mumkin. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni loyihasi ishlab chiqildi va ushbu qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisida birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilindi¹⁸.

Qonun ijodkorligida asosiy faoliyat amaldagi qonunlarni takomillashtirish va yangi qonunlarni yaratish ekanligi umum tan olingan voqelikdir. Bu parlamentning Konstitutsiyada belgilangan asosiy vakolati va unga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqadi.

Qonunlarni ijro etish esa ijroiya hokimiyatining bevosita vazifasi bo'lib, aksariyat hollarda bitta qonunning ijrosini ta'minlash uchun bir necha qonun osti hujjatlarini qabul qilish lozim bo'ladi. Demak, qonunni yaratish bitta sub'ekt, uning ijro etilishini ta'minlaydigan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish ikkinchi sub'ekt tomonidan amalga oshiriladi. Qonunni qabul qilish va ijro etishda davomiylik va uzviylikning mavjudligi uning dolzarbligi, samaradorligi va barqarorligi kafolatidir. Bu masalada "mendan ketguncha – egasiga etguncha" qabilidagi munosabat bo'lishi mumkin emas.

Deputatlar guruhi: • Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritadi; • Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan muzokaralarda deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi huquqidan foydalanadi; • kelishuv komissiyasi va boshqa komissiyalar tuzish to'g'risida masala qo'yadi; • Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etadi; Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan deputatlar guruhining fikrini Qonunchilik palatasi deputatlari o'rtasida tarqatadi; • palataning Kengashi, qo'mitalari va komissiyalari ishida ishtirok etadi; • Qonunchilik palatasida muhokama qilinayotgan qonun loyihalari va boshqa qarorlarning loyihalari yuzasidan o'z takliflarini kiritadi; • hukumat a'zolarini ularning faoliyati masalalari yuzasidan eshitish to'g'risida masala qo'yadi; • deputatlar guruhining faoliyati uchun zarur materiallar va hujjatlarni davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslaridan talab qilib oladi; • qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Ekoharakatdan saylangan deputatlar mazkur harakat bilan aloqa bog'lab turadi va Qonunchilik palatasida uning manfaatlarini ifoda etadi. Deputat o'ziga Ekoharakatdan tushgan murojaatlar-ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko'radi, fuqarolarni qabul qiladi. Deputat vaqti-vaqti bilan, ammo yiliga kamida bir marta, Ekoharakatga o'z faoliyati haqida axborot beradi. Ekoharakatning ishonchini oqlay olmagan deputat qonun-da belgilangan tartibda chaqirib olinishi mumkin.

¹⁷ Ўзбекистон Экологик ҳаракати депутатлик гуруҳи 2010 йилда амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот. 2011.

¹⁸ Ўзбекистон экологик ҳаракатининг 2011 йил 9 ойлик фаолияти тўғрисидаги ҳисоботи. 2011.

Ekoharakatdan saylangan Qonunchilik palatasi deputatini chaqirib olish quyidagi asoslar bo'yicha amalga oshiriladi: • deputatning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini jinoiy, fuqaroviy, ma'muriy hamda qonun-da nazarda tutilgan boshqa turdagi javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan tarzda buzganligi; • deputatning axloq, deputatlik odobining umum e'tirof etilgan normalarini qo'pol ravishda buzuvchi va deputat nomiga dog' tushiruvchi hamda davlat hoki-miyati vakillik organlarining obro'siga putur etkazuv-chi harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etganligi;

• deputatning qonun hujjatlarida nazarda tutil-gan o'z vazifalarini muntazam ravishda, uzrli sabab-larsiz bajarmaganligi, shu jumladan Qonunchilik palatasining majlislarida, ularning organlari ishi-da ishtirok etmaganligi, ularning topshiriqlarini bajarmaganligi. Ekoharakatdan saylangan Qonunchilik palatasi deputatini chaqirib olish uning oliy organi – Konfe-rensiya tomonidan amalga oshiriladi.

Parlamentarizm amaliyotida “davomiylik va uzviylik oltin qoidasini” ta'minlashga, ya'ni “mendani ketguncha...” munosabatining oldini olishga qaratilgan mexanizmlar o'rnatilgan. Ularning eng asosiysi qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishdir. Qonun loyihalarining aksariyati qonunlarni ijro etuvchi organ - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayyorlanishi ham qonunlarni ijrosiga taalluqli kafolatlarni ta'minlashning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. SHu va shunga o'xshash boshqa mavjud mexanizmlar qonunlar ijrosini ta'minlashda etarli ekanligiga shubha qilmasdan, ijro jarayonlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladigan ayrim fikrlarni bildirish foydadan xoli emas.

Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mita va komissiyalarida ko'rib chiqilgan yoki tashabbus qilingan, shuningdek siyosiy partiyalar fraksiyalari va Ekoharakat deputatlik guruhi qo'llab-quvvatlagan qonun loyihalari qabul qilinishi barobarida ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan tavsiyanoma ishlab chiqilishi va ijroiya hokimiyatiga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunday tavsiyanomalar qo'mitalar, partiya fraksiyalari va Ekoharakat deputatlar guruhi majlislarida yoki ular tomonidan uyushtirilgan maxsus konferensiya va yig'ilishlarda muhokama qilinishi va qabul qilinishi lozim. Ularda birinchi navbatda Qonunni tegishli tarzda ijro etish uchun zarur qonun osti hujjatlarini ishlash va qabul qilish ko'zda tutilishi kerak. Ta'kidlash kerakki, hozirda qonunning ijrosini bunday tarzda kuchaytirishga qaratilgan aniq mexanizm belgilanmagan.

SHuni alohida aytib o'tish kerakki, qabul qilingan qonunlarning ijrosini ta'minlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini Prezident I.Karimov o'z vaqtida o'rtaga tashlagan edi: “zamonaviy talablarga javob beradigan, el-yurtimizning asl va chuqur manfaatlarini inobatga olgan qonunlarni qabul qilish o'z yo'li bilan. Ayni paytda bu qonunlarning hayotimizda joriy bo'lganini, o'z aksini topganini ko'rish – bu odamlarimizga mutlaqo boshqacha mamnuniat bag'ishlaydigan va ularni rozi qiladigan vaziyat ekanligini barchamiz yaxshi tushunamiz. ... Biz qonunlarning matni, ma'no-mazmuni haqida ko'p bosh qotiramiz, ammo ularda belgilab qo'yilgan talablarni amalga oshirish uchun qonunchilikda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, shu qonunni joriy qilish uchun kerak bo'ladigan aktlarni qabul qilishni, bu masala bo'yicha javobgarlikni joyiga qo'yishni ko'pincha unutib qo'yamiz”¹⁹.

Ekoharakat deputatlar guruhi tomonidan qonun ijodkorligi faoliyatida ilm-fan yutuqlaridan foydalanish masalasi yangicha shaklda amalga oshirilmoqda. Bunday faoliyat harakat qoshida tuzilgan Olimlar Kengashiga asoslanadi. Kengash guruh tomonidan bajarilayotgan loyihalar va tadbirlarga ilmiy xulosalar berilishini, ularning ilmiy asoslanishini ta'minlaydi. Aksariyat hollarda Ekoharakatning bunday maslahat organi qonun loyihalarini ko'rib chiqish, tavsiya, xulosalar, ilmiy asoslar va izohlar berish ishlarini amalga oshiradi. Biroq bunday organning diqqatini qonun loyihalariga nisbatan alternativ loyihalar ishlab chiqish va taqdim etish, shuningdek loyihalarni “ekologiyalashtirish” bo'yicha ishlarga ko'proq jalb qilish ham katta samara berar edi.

¹⁹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё, ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. 35 б.

Umuman olganda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalari, partiya fraksiyalari va Ekoharakat deputatlar guruhi tarkibida tuzilgan mutaxassislar va jamoatchilikdan iborat bo‘lgan maslahat organlarining faoliyatini yanada yaxshilash va qolaversa, palata tarkibida jamoatchilik maslahat organini tuzishni o‘ylash mumkin. Parlamentda jamoatchilik organlarini tuzish o‘zga davlatlar amaliyotida mavjud bo‘lib, ularning mavqei tobora ortib bormoqda. Jumladan, Rossiya parlamentida Jamoatchilik palatasi, mahalliy kengashlar huzurida yoshlar parlamenti va boshqa ko‘plab jamoatchilik kengashlari tuzilganligi²⁰ e‘tiborga loyiqdir.

Ilmiy adabiyotlarda Ekoharakat tarkibidan deputatlar saylanishi va ularning qonun ijodkorligi jarayonlarida ishtirok etishini jamoatchilikning ekologik ahamiyatga ega qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki deb²¹ baholanmoqda. Bu erda shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati saylov okruglaridan yoki Ekoharakatdan saylanishidan qat’iy nazar, ularning faoliyatini jamoatchilikning ekologik ahamiyatga ega qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Zero, deputatlar (vakillar) faoliyat yuritadigan qonunchilik organi tom ma‘nodagi qonun ijodkorligini amalga oshiradigan tuzilmadir.

§ 3. O‘zbekiston Ekologik harakatining inson ekologik huquqlari ta‘minlanishi va muhofaza qilinishidagi o‘rni.

Qonun ijodkorligining inson ekologik huquqlariga taalluqli ahamiyatini uch xil ma‘noda tushuntirish mumkin. Birinchisi, mazkur faoliyat natijasida bunday huquqlar qonunlarda belgilanadi, ya‘ni tan olinadi, agar tan olingan bo‘lsa, ularning mavqei kuchaytiriladi. Ikkinchisi, inson huquqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa kafolatlari hamda himoya qilish mexanizmlari yaratiladi yoki takomillashtiriladi. Uchinchisi, qonun chiqarishga bevosita aloqasi bo‘lmasa ham, inson huquqlarining haqqoniy (real), amaliy dolzarb bo‘lishini va ijro etilishini ta‘minlashga xizmat qiladigan “parlament nazorati” deb ataluvchi faoliyat amalga oshiriladi. Bu erda shu narsani unutmaslik kerakki, qonun ijodkorligi mutlaq mustaqil yoki fuqarolik jamiyatidan ajratib qo‘yilgan faoliyat emas. U parlamentgacha bo‘lgan huquq ijodkorligi jarayonlariga tayanadi, ularda yuzaga kelgan xalq huquq tashabbuskorligi natijalarini manba qilib oladi va muntazam ravishda parlament “sirti”dagi jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. SHuningdek qonun ijodkorligi ko‘pchilik hollarda xalq huquq tashabbuskorligiga bo‘ysunadi, bundagi huquqiy tashabbuslarni hisobga olishga majburdir.

Inson huquq va manfaatlari, xususan ekologik huquqlarining yuridik kategoriya sifatida rasman yaratilishi va kafolatlanishi qonun ijodkorligi faoliyatida amalga oshiriladi. Qonun ijodkorligi huquqiy normalarni yaratishga, shuningdek ularni yanada takomillashtirish, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan davlat faoliyatining shaklidir²². Qonun davlat hokimiyati maxsus faoliyatining mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo‘lmish qonun, hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi²³.

Qonun ijodkorligini “davlat faoliyati” yoki “davlat hokimiyati maxsus faoliyati” deb tan olinishi uni faqat davlat organlari amalga oshiradi degan xulosani anglatmaydi. Qonun

²⁰Йўлдошев А. Фуқароларни давлат бошқарувидаги иштирокини кенгайтиришдан ҳуқуқий маданиятни юксалтириш сари // Ҳуқуқий онгдан - юксак ҳуқуқий маданият сари. Конф. материаллари. Т., 2006. 106-107 б.

²¹Ўтеганов О.Д. Жамоат экологик назоратини ҳуқуқий тартибга солиш. Ю.ф.н. илм. дар. олиш учун ёзилган диссер.автореф. // Т.: 2010.

²²Проблемы общей теории права и государства. Дарслик. В.С.Нерсисян таҳрири остида. 2-нашри. // М.: Норма Инфра/М. 2010. 333 б.

²³Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. // Т.: Шарқ. 2002. 250 б.

ijodkorligi “asosan parlamentning qonun yaratish faoliyati” bo‘lsa ham, uning amalga oshirilishi birgina davlat hokimiyati organlari tomonidan bajarilmaydi. Parlament davlatning qonun chiqaruvchi vakillik organi bo‘lgani bilan u fuqarolarning, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar va jamoatchilikning benazir demokratik qadriyat bo‘lgan “minbari”dir. Qonun ijodkorligi davlat hokimiyatining fuqarolik jamiyati tuzilmalari bilan birgalikdagi faoliyatidir. Bu jarayon har ikkala tomon amalga oshiradigan kelishuv bo‘lib, u davlat hokimiyatining fuqarolik jamiyati manfaatlariga xizmat qilishi va bo‘ysunishi tamoyiliga asoslanadi.

Inson ekologik huquqlari insonning boshqa barcha huquq va erkinliklari qatorida qonun ijodkorligining tarkibiy qismiga aylangan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan qonunlar yaratish jarayonlarida ifodalanadi, huquqiy qadriyatlar sifatida ular faoliyatining asosiy mazmuni bo‘lib hisoblanadi. YAqin-yaqinlargacha inson ekologik huquqlariga taalluqli qonun ijodkorligi parlamentga jalb qilingan siyosiy kuchlar nuqtai nazaridan faqatgina siyosiy partiyalar tomonidan amalga oshirilar edi. Biroq davlat siyosatida ekologiya muammolariga va shunga ko‘ra inson ekologik huquqlariga e‘tibor borgan sari muhim ahamiyat kasb etayotganligi, O‘zbekistonda ekologiya masalalari bilan shug‘ullanadigan ommaviy harakatning tuzilganligi, qonun ijodkorligida Ekoharakat deputatlar guruhi alohida “o‘rin” egallaganligi bilan ekologiya muammolari, xususan inson ekologik huquqlari masalalarini qamrab olish maxsus faoliyat darajasiga ko‘tarildi. Bu voqelikning eng muhim jihati shundan iboratki, inson ekologik huquqlariga taalluqli qonun ijodkorligi endilikda birgina siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan bir qatorda Ekoharakat deputatlari ham teng huquqlar asosida ishtirok etishi qonun ijodkorligi borasida erishilgan katta yutuqdir. Bu yutuq O‘zbekistonda parlamentarizmni jahondagi eng zamonaviy, ya’ni “yashil markali” parlamentlar darajasiga haqli ravishda ko‘tarilishiga olib keldi.

Qonun ijodkorligida ekologiya muammolariga, xususan inson ekologik huquqlariga taalluqli masalalar bilan maxsus shug‘ullanadigan “ekolog” deputatlar guruhining mavjudligi ularni boshqa, masalan, ijtimoiy yoki iqtisodiy masalalardan ustuvor yoki birinchi navbatdagi qilib belgilanishini anglatmaydi. SHu o‘rinda inson ekologik huquqlarini uning boshqa huquq va manfaatlariga qaraganda ustuvor deb tushunmaslik ham lozim. Xuddi shunday alfozda davlatning iqtisodiy yoki ijtimoiy manfaatlariga qaraganda ekologik manfaatlar ustun ekanda, degan fikr ham bo‘lishi mumkin emas. Huquq va manfaatlarining nisbatiga kelganda, shuni ta’kidlash kerakki, fuqarolarning barcha huquq va manfaatlari teng, ya’ni ular hammaga bir xil sifatda va hajmda taalluqli bo‘ladi. Davlat manfaatlarini turli tarmoq (iqtisodiy, ijtimoiy va h.k.) larga ajratish mumkin, biroq ularni ham birini past, birini yuqori deb baholab bo‘lmaydi. Qonun ijodkorligida manfaatlarni ifodalashda shunday tenglik ta’minlanishi shart. “Qonun chiqaruvchining haqiqiy ustakorligi - deb yozadi prof. E.X.Xalilov, - fuqarolarning huquq va majburiyatlari, shaxsiy va jamoat manfaatlari orasidagi optimal chegaralarni belgilash, bu chegaralarni na fuqarolar, na davlat va uning mansabdor shaxslari tomonidan buzilishiga yo‘l qo‘yadigan har qanday imkoniyatlarni bartaraf qilishda o‘z ifodasini topadi²⁴”.

Boshqa tomondan olib qaraganda qonun ijodkorligida Ekoharakat deputatlar guruhi ishtirokini bunda ekologiya muammolari, xususan inson ekologik huquqlariga taalluqli masalalarni ma’lum bir tor tarmoqqa yoki jamiyat ma’lum qatlamlariga tegishli korporativ manfaatlarni ifoda etadi, deb ham o‘ylamaslik kerak. Ekologiya va inson ekologik huquqlari masalalari faqatgina individlarga emas, balki butun kishilik jamiyatiga tegishli, bu masalalarning hal etilganligi yoki etarli ta’minlanganligi butun jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi va ularning in’kosi hisoblanadi. Insonga tabiat ne’matlarini zarur sifatlar va miqdorlarda ta’minlab berish har qanday davlatning, shu jumladan O‘zbekistonning ham muhim vazifasidir. SHu boisdan ham qonun ijodkorligida ekologik huquq va manfaatlarni qamrab olish umumdavlat ahamiyati nuqtai nazardan amalga oshiriladi. Qonun ijodkorligida siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar va boshqa jamoat birlashmalarining ishtiroki umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lishi lozim, degan

²⁴ Халилов Э.Х. Высший законодательный орган Республики Узбекистан: от формального представительства до реального парламентаризма. Т.: Узбекистон. 2001. 72 б.

ilmiy qarashlardan²⁵ kelib chiqib aytish kerakki, bundan tashqari ekologik huquq va manfaatlar ham umumdavlat erkiga mos keladi. Parlamentda ekologik huquq va manfaatlarga taalluqli faoliyat undagi boshqa siyosiy tuzilmalar olg'a surayotgan g'oya va dasturlardan farq qilishi mumkin, lekin ular ham umummilliy erk va g'oyalarga mos keladi.

Inson ekologik huquqlarini qonun ijodkorligi jarayonlarida yanada to'liq ifodalash va ro'yobga chiqarish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish va liberallashtirishning asosiy maqsadlaridan kelib chiqadi. Hozirgi huquqiy hayotimizning asl mohiyati va muhim xususiyati shundaki, yaxlit voqelik sifatidagi huquqiy tizim hamda uning har bir tarkibiy bo'g'ini, ya'ni huquq normalari, huquq ijodkorligi jarayoni, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy munosabatlar, yuridik muassasalar tizimi, yuridik amaliyot, huquqiy ong, huquqiy siyosat, huquqiy madaniyat va shu kabilar alohida institut sifatida modernizatsiya qilinmoqda²⁶. Modernizatsiyalash jarayonlarining mag'zida inson huquq va manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash, hozirgi paytda "dolzarb" bo'lgan huquqlar bilan bir qatorda boshqa huquqlarni, ya'ni insonning tabiiy huquqlari sirasiga kiruvchi ekologik huquqlarni ham "dolzarb" huquqlar sifatida ifodalash, qaror toptirish va himoya qilish masalalari yotadi. Bunday huquqlarning ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlarini qabul qilish va ularning ijro etilishi ustidan tegishli nazoratni amalga oshirishda siyosiy partiyalar va ommaviy harakat (Ekoharakat)ning qonun ijodkorligida ishtiroki va normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy partiyalarning qonun chiqaruvchi vakillik organi faoliyatida ishtirok etishi, shu asosda inson huquq va manfaatlarini ifodalash, qaror toptirish, ro'yobga chiqarish va himoya qilishni amalga oshirish ularning hokimiyat tizimida siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining asosiy mohiyatidan kelib chiqadi. Bu sohada partiyalar fuqarolarning huquq va manfaatlarini ilg'ab olib, ularning o'zaro o'xshash manfaatlarini birlashtiradi. Bunda ular aholi turli guruh va qatlamlarining siyosiy intilishlarini partiyaviy doiraga jamlab, parlamentga etkazuvchi, o'z a'zolari va xayrixohlarini siyosiy jarayonlarga safarbar etuvchi, shuningdek, fuqarolarni bu jarayonda faol ishtirok etishga rag'batlantirish vositasi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. SHu o'rinda partiyalarning qonun ijodkorligi jarayonlarida inson ekologik huquqlari va manfaatlarini muhim bilib, ifoda etishi va ro'yobga chiqarishi alohida ahamiyatga ega.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar va boshqa jamoat birlashmalarining huquq ijodkorligi jarayonlarida ishtirok etib, inson ekologik huquqlarini ifodalashi, qaror toptirishi va ta'minlashi fuqarolik jamiyati rivojlanishining yuksak mavqeini bildiruvchi omildir. Ushbu holatni ta'kidlashda bir narsani yodda tutish lozim: bu voqelik nechog'lik demokratik bo'lib hisoblanmasin, uning mavjudligi va takomillashib borayotganligiga asoslanib siyosiy tizimda bunday institutlar davlat hokimiyati tuzilmalari o'rnini egallashi evaziga faoliyat yuritadi, deb hisoblamaslik lozim.

Ilmiy manbalarda to'g'ri ta'kidlanganidek, qonun ijodkorligida siyosiy partiyalarga o'rin berilishi ular faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish barobarida, siyosiy partiyalarning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni va rolini yanada oshiradi²⁷, biroq bu "o'rin" ular vakolatlarini hech bir cheklovlersiz amalga oshirishini, manmanlik va gegemonlikka berilib ketishini, davlat tuzilmalari bilan ziddiyatli munosabatlarni vujudga keltirishini anglatmaydi. Aksincha, qonun ijodkorligida siyosiy partiyalarning faolligini va ish samaradorligini oshiradigan boshqa holatlar, ya'ni ular orasidagi tortishuvchanlik va o'z g'oyalarini o'tkazish kabi xislatlar doimo rivojlanib borishi kerak. Prezident I.Karimov siyosiy partiyalarning qonun ijodkorlik jarayonlarida ishtirok etishining samarasini oshirish shakl va usullariga to'xtalib, shunday deydi: "Aynan parlament

²⁵ Қаранг: Лапаева В.В. Фракции и депутатские группы в Государственной Думе как субъекты парламентского процесса // Законодательство и экономика. 1998. № 4. 8 б.

²⁶ Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий кадриятлар. 72 б.

²⁷ Ҳамидова К. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва жамоат бирлашмалари. Т., 2005. 19 б.

faoliyatida, ta'bir joiz bo'lsa, g'oya va dasturlar bellashuvi doimiy tus olishi, har qanday partiya o'z oldiga qo'ygan maqsad-muddolariga ana shunday kurash orqali erishishi mumkin"²⁸.

Davlat, uning organlari va jamoatchilik birlashmalari munosabatlarida birlamchilik roli nimada ekanligi to'g'risida so'z ketganda XIX asrda yashab o'tgan rus yurist olimi N.M.Korkunov quyidagi fikrlarni bildirgan: insoniyat muloqotining xilma-xil shakllari ichida "ustuvorlik roli hech shubhasiz davlatga tegishli bo'lishi lozim". SHunday zamonlar bo'lganki, - deb o'z so'zini davom ettiradi u, - davlat inson hayotining batamom hamma tomonlarini qamrab olgan, shu zaylda qadimgi dunyoda inson "to'liqligicha davlat fuqarosi tushunchasiga tobe bo'lgan". Hozirgi vaqtda ham, - deb xulosa qiladi N.M.Korkunov, - davlat bilan bir qatorda insonlar jamoaviy birliklarining turli shakllari kam bo'lmasa ham "davlat ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga baribir ham u yoki bu holatda o'z ta'sirini o'tkazadi. Nima bo'lganda ham insoniyat tarixi avvalo davlat faoliyati tomonidan yaratiladi"²⁹. Demak, siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlarning huquq ijodkorligi jarayonlarida xalq huquq tashabbuskori sifatida parlamentdan "tashqi muhit"da turib ishtirok etganidan ko'ra, bevosita qonun ijodkorligi faoliyatining sub'ekti bo'lib, "davlat va jamoat institutlari birligi" sifatida ishtirok etishi katta ahamiyatga ega. Ularning davlat faoliyati "ichida" turib, u bilan jipslashib, siyosiy tizimning bir qismiga aylanganligi so'zsiz ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy partiyalarning parlamentdagi qonun ijodkorligida faoliyat yuritadigan tuzilmalari fraksiyalar deb nomlanadi. Fraksiyalar to'g'risida gap ketganda, ularning qonun yaratish jarayonlarida jamiyat ma'lum qatlamlari va guruhlar huquq va manfaatlarini ifoda etuvchi va ro'yobga chiqaruvchi tuzilmalar ekanligini ta'kidlash lozim. SHu o'rinda siyosiy masalalarni hal etish bilan shug'ullanish ularning vakolatlariga kirmaydi³⁰, degan fikrning to'g'riligiga hech shubha yo'q.

Partiya fraksiyalarining vakolatlari bir necha qonunlar bilan aniq qilib belgilab qo'yilgan. CHunonchi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalari quyidagi huquqlarga ega: qonunchilik palatasi majlisining kun tartibini tuzishda ishtirok etish; O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish to'g'risidagi tashabbus bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilish; Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda fraksiya vakiliga kafolatlangan so'z berilishi; tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeriga va O'zbekiston Respublikasi hukumatiga, vazirlarga, shuningdek boshqa davlat organlarining rahbarlariga so'rov bilan murojaat etish; Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarligiga, qo'mitalari va komissiyalari raisligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish; Qonunchilik palatasining majlisida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha fraksiya fikrini bayon qilish.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasiga binoan fraksiya va deputatlar guruhi: 1) Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritadi; 2) Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan muzokaralarda fraksiya, deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi huquqidan foydalanadi; 3) kelishuv komissiyasi va boshqa komissiyalar tuzish to'g'risida masala qo'yadi; 4) Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etadi; 5) Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan fraksiyaning, deputatlar guruhining fikrini Qonunchilik palatasi deputatlari o'rtasida tarqatadi; 6) Qonunchilik palatasining Kengashi, qo'mitalari va komissiyalari ishida ishtirok etadi; 7) Qonunchilik palatasida muhokama qilinayotgan qonun loyihalari va boshqa qarorlarning loyihalari yuzasidan

²⁸ Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи. 2010 йил 28 январ.

²⁹ Коркунов Н.М. Лекции по общей теории права. // СПб. 1898. 235 б.

³⁰ Халилов Э.Х. Кўрсат. адаб. 116 б.

o'z takliflarini kiritadi; 8) hukumat a'zolarini ularning faoliyati masalalari yuzasidan eshitish to'g'risida masala qo'yadi.

YUqorida aytib o'tilgan partiya fraksiyalarining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunda belgilangan huquqlari hozirda eskirib, dolzarbligi susaygan. Undagi vakolatlar "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunda belgilangan vakolatlar hajmi va mazmunidan farq qiladi. SHu bois "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatilgan fraksiya huquqlarini "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunda belgilangan vakolatlari bilan moslashtirish zarur. Umuman olganda, har ikkala qonundagi fraksiyalar va deputatlar guruhlar vakolatlarini "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"³¹ga asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarga moslashtirish zarur.

Hozircha siyosiy partiyalarining inson huquqlari va manfaatlarini ifoda etish va ro'yobga chiqarish borasidagi amaliy faoliyatini juda yuqori darajada deb aytilish qiyin. Bunday fikrni sotsiologik so'rovlar natijalari bilan mustahkamlash mumkin. CHunonchi, sotsiologik so'rovda "Mamlakatimizda qonuniy asosda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalardan qaysi biri Sizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy manfaatlarinigizni ro'yobga chiqarmoqda va qay darajada?" deb berilgan savolga respondentlarning 28,1 %i XDPni, 21,9 %i O'zLiDePni, 15,3 %i "Adolat" SDPni, 8,3 %i "Milliy tiklanish" DPni ko'rsatishgan. Respondentlarning 14 %i "bunday partiya yo'q", 12,7 %i esa "bilmadim" deb javob berganlar³².

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibiga O'zbekiston Ekologik harakati vakillarining deputat bo'lib kiritilishi bu organ to'g'risidagi "xalq vakillari organi" degan tushunchani yanada kengaytiradi. SHu paytgacha bu organga jamlangan hamma deputatlar saylovlarda saylangan vakillar bo'lib hisoblanar edi. "Barcha deputatlar, - deb yozadi taniqli olim Z.Islamov, - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar. Aynan shuning uchun ham qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillik hokimiyati hisoblanadi. Aynan saylovlar asosida xalq o'z vakillariga hokimiyatni topshiradi va vakillik organlariga davlat hokimiyatini amalga oshirish vakolatini beradi"³³. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "ekolog" deputatlar guruhining tashkil etilgani qonun ijodkorligida "yangi maqom"ga ega bo'lgan deputatlar ishtirok etayotganligini ko'rsatadi.

Ushbu "yangi maqom"ni tavsiflovchi holat shundan iboratki, endilikda qonun chiqaruvchi organ tarkibida tom ma'noda xalq vakillaridan tashqari boshqacha ma'noda "vakillik" maqomiga ega bo'lgan deputatlar ham ishtirok etmoqda. Bunday vaziyat qonun ijodkorligi tushunchasini ham yangicha, modernizatsiyalashgan shaklini keltirib chiqaradi.

³¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси" тўғрисидаги маърузаси. Т. Ўзбекистон. 2011.

³² Қаранг: "Ижтимоий фикр" жамоатчилик марказининг 2009 йилнинг 22 октябр – 2 ноябр кунлари Ўзбекистон Республикасининг турли вилоятларида "Парламент ва сиёсий партиялар Ўзбекистон жамоатчилиги фикрида" мавзусида ўтказган сўров натижалари.

³³ Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. // Т.: 2007. 362-363 б.

XULOSA

Hozirgi ekologik muammolar globallashuvi sharoitida ularni bartaraf etish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik ahvolni sog'lomlashtirish va aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamining kengligi, dunyo mamlakatlarida davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning sa'y-harakatlarini birlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisida e'lon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"da davlat va jamiyat hayotiga oid muhim muammolarni hal etishda jamoat birlashmalarining o'rni va ahamiyati alohida yo'nalish sifatida belgilanib, "sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan taminlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"³⁴, deb e'tirof etilgani ham bejiz emas.

Ayniqsa, 2008 yil 2 avgustda O'zbekiston ekologik harakatining tashkil etilganligi mamlakatimizda ekologik jamoat birlashmalari rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Endilikda yurtimizda faoliyat yuritayotgan ekologiya yo'nalishdagi jamoat birlashmalari O'zbekiston ekologik harakati timsolida atrof tabiiy muhit va inson salomatligi muhofazasi bo'yicha barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish hamda safarbar etish imkoniyatidan foydalanmoqdalar. SHunday ekan, siyosiy partiyalar va ommaviy (ijtimoiy) harakatlar faoliyatida inson ekologik huquqlarini ta'minlash masalalarini o'rganish hozirgi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

³⁴ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. 47 б.

O'z vakillari ularga saylangan taqdirda, ular qonunchilik tashabbusi bilan chiqishlari, hukumatga va mahalliy davlat organlariga so'rov bilan murojaat etishlari, muhokama qilinayotgan kun tartibi bo'yicha partiya nuqtai nazarini tushuntirib berishlari mumkin³⁵.

“Parlament nazoratini amalga oshirish, quyidagi bir necha maqsadlarni ko'zda tutadi: birinchidan, qonunning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni va sharoitlarni aniqlash; ikkinchidan, har bir huquqiy normaning aniq bir ijtimoiy munosabatni tartibga solish uchun xizmat qilishini ta'minlashga erishish; uchinchidan, qonunlardagi kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish; to'rtinchidan, qonunlar ijrosini ta'minlashda mansabdor shaxslarning yuksak mas'uliyatini hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni ta'minlash”³⁶.

XULOSA

Ekoharakat quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan yangi qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish, amaldagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishni qo'llab quvvatlash borasida jamoatchilik tashabbuskorligini oshirishni muhim deb hisoblaydi:

- sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va energetika-kaning barcha sohalarida ekologik toza va xavfsiz, suv, resurs va energiyani tejovchi texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq etishni tashkil etishda iqtisodiy, moliyaviy, soliq va boshqa vositalar hamda rag'batlantirish usul-lari qo'llanilishini yanada takomillashtirish;
- energetika resurslaridan tejamli foydalanish va bosqichma-bosqich qayta tiklanuvchi energiya turlariga o'tish;
- yangi samarali uslublar hamda innovatsion qishloq xo'jaligi texnologiyalarni qo'llash hisobiga erlarning hosildorligi va meliorativ holatini yaxshilash;
- tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini buzish ishlab chiqaruvchi uchun naf keltirmaydigan tarzdgagi soliqqa tortish va tabiatni muhofaza qilish faoliyati uchun imtiyozlar berishning samarali tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

RAHBARIY ADABIYOTLAR

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Конституциявий ҳукуқи. 786 б.

³⁶ Исмоилов Н.М. Қонунлар ижроси устидан парламент назорати. Т.: “Адолат”. 1999. 4 б.

1. Karimov I.A. "Kamolot" yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin. T.: "O'zbekiston". 2001. 18 b.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. - T.: O'zbekiston, 2002.
3. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. 35 b.
4. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. – T.: O'zbekiston, 2004.
5. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.
7. I.A.Karimov. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. // "Toshkent oqshomi". 2006.
8. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. // T.: O'zbekiston, 2007, 32-33 b.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. // T.: O'zbekiston, 2008.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2010 yil 12 noyabr qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Toshkent: "O'zbekiston", 2010, 43, 47 b.
11. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Xalq so'zi. 2010 yil 28 yanvar.
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. // T.: O'zbekiston, 2011.

NORMATIV – HUQUQIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. www. Lex.uz 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 yil, № 4, 76-, 86-modda; 1992 y., № 9, 355-, 363-modda; 1993 yil, № 1, 38-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil, № 6, 118-modda; 1997 yil, № 2, 36-, 52-modda, 4-5, 126-modda; 1998 yil, № 1, 14-modda, 3, 38-modda; 1999 yil, № 1, 5. 20-, 124-modda, 9, 229-modda; 2000 yil, № 5-6, 7-8, 153-, 217-modda, № 7-8, 217-modda; 2002 yil, № 9, 165-modda; 2003 yil, № 1, 5-modda, 9-10, 149-modda; 2004 yil, № 1-2, 18-modda, 5, 90-modda; 2005 yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 10, 536-modda; 2007 yil, № 4, 163-modda, 12, 604-modda; 2008 yil, № 12, 637-, 640-modda.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. T.: 2003. 698-bet.
4. O'zXDP Ustavi 1-bo'lim. 2-bo'linma // Toshkent, 2005, 1 b.
5. O'zbekiston "Adolat" SDP Ustavi (YAngi tahrir), 2.1 qism. // Toshkent: 2006, 2 b.
6. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zLiDeP Dasturi. // T.: 2004, 6-7, 13 b.
7. O'zbekiston "Adolat" SDP Saylovoldi dasturi // Toshkent, 2004, 4 b, 2009. 5 b.
8. O'zbekiston "Adolat" SDPning 2006-2009 yillarga mo'ljallangan faoliyat dasturi. T.: 2006, 15 b.
9. "Jamiyat" gazetasi. 2011 yil 22 aprel. № 16. 9 b.
10. Xartiya Evropeyskogo Soyuza ob osnovnykh pravax: kommentariy // Otv. red. Kashkin S.YU. // M., 2001.
11. "Korxonalar, uyushmalar va tashkilotlardan soliq olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi 15.02.1991 y. 225-XII-sonli Qonuni bilan qabul qilingan. // O'zbekiston SSJ ning Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1991 y, 4, 86-modda.
12. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi 09.12.1992 y. 754-XII-sonli Qonuni bilan qabul qilingan. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1993 y. 1-son, 38-modda.

13. “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 26.12.1997 y. 545-1-son Qonuni bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1998 y. 1-son, 14-modda.
14. “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 31.08.2000 y. 120-P-son Qonun bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi 2000 y. 7-8-son, 212-modda.
15. “CHiqindilar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 05.04.2002 y. 362-P-son Qonuni bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 4-5-son, 72-modda.
16. “Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 28.09.2006 y. O‘RQ-57-sonli Qonuni bilan qabul qilingan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 y. 9-son, 499-modda.
17. “YOng‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 30.09.2009 y. O‘RQ-226-sonli Qonuni bilan qabul qilingan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009 y. 9-son, 340-modda.
18. O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” YOIHning Dasturi (yangi tahriri). 2 b.
19. O‘zbekiston Ekologik harakatining Ustavi. // T.: 2009. 4 b.
20. O‘zbekiston Ekologik harakatining Dasturi. // T.: “CHinor ENK”. 2009. 5 b.
21. O‘zbekiston Ekologik harakatining 2011 yil 9 oylik faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti, 2011 yil.
22. O‘zbekiston Ekologik harakati deputatlik guruhi tomonidan 2010 yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot. – Toshkent, 2011

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Mamayusupov M. “Inson ekologik huquqlarini ta’minlashning huquqiy kafolatlari va mexanizmlari” nomli yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. // - T.: TDYUI. 2010.
2. Mamayusupov M. “Inson ekologik huquqlari: umumiy tavsifi va tasnifi”. Inson huquqlari va demokratlashtirish. 2010. № 1. 94-96 b.
3. Xamraev O‘R. “Ekologik qonunchilik talablarini amalga oshirishda jamoat birlashmalari ishtirokining huquqiy masalalari” nomli yu.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. // - T.: TDYUI. 2011.
4. Dubovik O.L. Ekologicheskoe pravo. Darslik. 3 nashri. // M.: Prospekt, 2010. 195-196, 212-213, 334 b.
5. Brinchuk M.M. Ekologicheskoe pravo (Pravo okrujayuyey sredy). Darslik. // M.: YUrist. 1998, 131-132, 248 b.
6. Brinchuk M.M. Ekologicheskoe pravo. Darslik. // M.: YUrist. 2004, 118-119, 121, 351-352 b.
7. Ikramov R.A. “Fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi”, T.: O‘zR FA Falsafa va huquq instituti, 2008 y.
8. Tretyakova A.A. Ponyatie ekologicheskix prav po zakonodatelstvu stranax chlenov Evropeyskogo Soyuzu // “Ekologicheskoe pravo”, 2002, № 1, 52 b.
9. Jumaev O. Siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi etikasi. // T.: TDYUI. 2004. 3 b.
10. Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. // T.: SHarq. 1998. 32 b.
11. Hamidova K.T. Saylovlar va siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish // T.: TDYUI. 2004. 6 b.
12. Hamidova K.T. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va jamoat birlashmalari. T., 2005. 19 b.
13. Odilqoriev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. // T., 2002. 89 b.

14. Berdikulov S. Fuqarolik jamiyati va ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanish jarayonlari. To'p.: Globallashuv, milliy g'oya va mafkura: muammolar, echimlar, istiqbollar. // T.: 2009. 37 b.
15. Fayziev SH.X. Davlat ekologik siyosatining asosiy yo'nalishlari: huquqiy tartibga solish masalalari. – Toshkent: Hayot va qonun. 2004. № 3. 31-33 b.
16. Utegenov O.D. Jamoat ekologik nazoratini huquqiy tartibga solish. // YU.f.n. il.dar.olish uchun yoz.diss. avtoreferati.//T.: 2010. 9 b.
17. Komarov S.A. Obshchaya teoriya gosudarstva i prava. 7-nashri // M.: Piter. 2005. 192-199 b.
18. Orlova O.V. Sotsialnyy i politicheskiy plyuralizm. // Politicheskie problemy teorii gosudarstva. // M.: IGPAN, 1993, 68 b.
19. Juraev YU.A. Problemy pravovogo rejima i ohrany gosudarstvennykh pamyatnikov prirody (na materialax Uzbekistana) Otv. red. prof. O.S.Kolbasov. // Tashkent: FAN, 1990. 55 b.
20. Vasileva M.I. Pravovye problemy organizatsii upravleniya v sfere ohrany okrujayushchey sredy. // M.: 2004. 65-126, 130-131 b.
21. Kalonov B.H. O'zbekiston Respublikasida davlat ekologiya nazoratining huquqiy muammolari. / YU.f.n. il.daraj.olish uchun yoz.diss.avtoreferati // Toshkent, 2004, 16-17 b.

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. www.pravo.vsem.uz
2. www.kodeks.uz
3. www.lawlib.uz
4. www.lex.uz
5. www.zakon.uz